

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

Geografiya kafedrası

Qo`lyozma huquqida

Mirzayev Lochin Shukurjonovich

**FARG`ONA MINTAQASIDA URBANIZATSIYA JARAYONINING
RIVOJLANISHI**

5140600- geografiya (geografiya) ta`lim yo`nalishi bo`yicha
akademik darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ish rahbari: katta o`qituvchi Z. A. Temirov

Andijon - 2017 yil

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
BIRINCHI BOB. URBANIZATSIYANI O'RGANISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	5
1.1 Urbanizatsiya –iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning o’rganish obyekti sifatida.	5
1.2 Urbanizatsiya jarayoni va shaharlar geografiyasi.....	12
1.3 O’zbekistonda urbanizatsiya rivojlanishiga hos hususiyatlar.....	18
IKKINCHI BOB. FARG’ONA MINTAQASI URBANISTIK TARAQQIYOTI.....	25
II.1 Farg’ona mintaqasi aholi dinamikasi va unga ta’sir etuvchi omillar	25
II.2 Farg’ona mintaqasi urbanizatsiya jarayoniga hos hususiyatlar.....	38
II.3 Mintaqaning hududiy urbanistik taraqqiyoti	Ошибка! Закладка не определена.
HULOSA	56
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	Ошибка! Закладка не определена.7

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi. Urbanizatsiya jarayoni XX asrning eng muhim ijtimoiy hodisalaridan biri bo‘lib bu hodisa iqtisodiy, tabiiy va ekologik oqibatlarga ega. Kishilarning asosiy yashash hududlariga aylangan shaharlar ishlab chiqarish va iste‘molning ham asosiy hududlari hisoblanadi. Bu jihatdan kishilik jamiyatining yer yuzidagi belgilovchi omil sifatidagi xususiyati namoyon bo‘ladi, ya‘ni tabiiy muhit, tabiat va inson o‘rtasidagi munosabatlar, shahar hududlarida boshqacha tus oladi va talqin qilinadi. Bir so‘z bilan aytganda shaharlar inson xo‘jalik va ijtimoiy faoliyatining mahsuloti va shu bilan birga insonning hayot tarzini o‘ziga xos tomonga buruvchi omildir.

O‘zbekiston milliy iqtisodiyotini mustahkamlash, bozor munosabatlarini amalga oshirish, hamda ishlab chiqarish kuchlarini hududiy tashkil etish va boshqarishda shaharlarning ahamiyati katta. “Hayotning o‘zi va o‘tgan yillar tajribasi hududlarni kompleks rivojlantirishni va infratuzilma faoliyatini tubdan o‘zgartirishni ta‘minlashdagi jiddiy kamchiliklarni bartaraf etishni talab qilmoqda”¹. Shundan kelib chiqqan holda Farg‘ona mintaqasida urbanizatsiya jarayonining rivojlanishini o‘rganish mazkur BMI ning **dolzarbliligini** belgilaydi.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Shaharlar va ularning hududiy majmualari bo‘yicha MDH mamlakatlarida keng miqyosda tadqiqotlar olib borilgan. Shaharlarni o‘rganishda N.N.Baranskiy, D.I.Bogorad, A.P.Buryan, O.A.Konstantinov, G.M.Lappo, I.M.Mayergeyz, Yu.G.Saushkin va boshqa olimlarning xizmatlari katta.

O‘zbekistonda shaharlarni iqtisodiy geografik o‘rganish bo‘yicha O.B.Ata-Mirzayev, E.A.Ahmedov, T.I.Raimov, A.A.Qauymov, A.S.Soliyev, T.N.Mallaboyev, Z.H.Rayimjonov va boshqa mutahassislar shug‘ullanishgan.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruzasi

BMIning maqsadi va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishni bajarishdan maqsad Respublikaning eng ko'p shaharlari mujassam bo'lgan Farg'ona mintaqasi urbanizatsiya jarayonini, uning rivojlanishiga hos bolgan hususiyatlarni o'rganishdan. Mintaqa urbanizatsiya darajasini o'rganish orqali shaharlarni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Vazifalari:

- ✓ O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonining rivojlanishiga hos hususiyatlarni yo'ritish va hududiy tafovutlarni tahlil qilish;
- ✓ Farg'ona mintaqasi shaharlarining demografik rivojlanishiga hos hususiyatlarni o'rganish;
- ✓ Farg'ona mintaqasida shaharlar rivojlanishi va urbanizatsiyasidagi o'ziga hos hususiyatlarni aniqlash;
- ✓ Mintaqaning hududiy urbanistik taraqqiyotining ustivor yo'nalishlari haqida mulohaza yuritish;
- ✓ Mintaqada urbanizatsiya rivojlanishiga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Farg'ona mintaqasi urbanizatsiya jarayoni **BMI ning obyekt**i bo'lib xizmat qiladi.

BMI ning predmeti. Mintaqa urbanizatsiya jarayonini geografik jixatlarini o'rganishdan iborat.

BMI ning nazariy uslubiy asoslari. Mamlakatimizning geograf va demograf olimlarining ilmiy ishlari, o'quv uslubiy qo'llanmalari hamda O'zbekiston respublikasi qonunlari, hukumatimiz qarorlari xizmat qildi. Bitiruv malakaviy ishni yozish jarayonida statistik, guruhlash, taqqoslash, bashoratlash uslublari qo'llanildi. Bitiruv malakaviy ishda, sohaning yetuk olimlari tomonidan yaratilgan mavjud ilmiy adabiyotlardan, O'zbekiston Respublikasi Davlat ststistika qo'mitasining statistik to'plamlaridan va internet keng foydalanildi.

BMI ning ilmiy yangiliklari quyidagilarda o'z aksini topgan:

- ✓ Farg'ona mintaqasi urbanizatsiya darajasidagi hududiy tafovutlar aniqlandi;

- ✓ Mintaqaning eng yirik shaharlari paydo bo'lgan davrlariva rivojlanishi o'rganildi;
- ✓ Farg'ona mintaqasining aholi soniga ko'ra eng yirik shaharlar o'rganildi;
- ✓ Mintaqada shaharlar aglomeratsiyalari, ularning rivojlanish hususiyatlari o'rganildi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi. Mazkur BMI kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, u 55 betni o'z ichiga oladi.

BIRINCHI BOB. URBANIZATSIYANI O'RGANISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI

1.1. Urbanizatsiya –iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning o'rganish obyekti sifatida

Jahon adabiyotida urbanizatsiya termini ikki xil keng va tor ma'noda tushunish taklif etilgan edi. Tor ma'noda olganda, urbanizatsiya mamlakatda yoki muayyan bir hududda shahar aholisi salmog'ining oshish jarayonini bildiradi. Urbanizatsiya bunday «demografik» tarzda tushunish ko'pgina olimlarning asarlarida uchraydi. Masalan. V.V. Pokshishevskiy va V.M. Goxman bunday deb yozadi: Urbanizatsiya, mamlakat, rayon va hokazolar hayotida shaharlar saviyasining oshish jarayoni tarzida tushuniladi. Urbanizatsiyalanganlik – shahar hayoti rivojining darajasidir. Masalan: shahar aholisining foiz xisobida olingan salmog'i uning ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi. Shunday qilib, birinchi termin jarayonini bildirsa, ikkinchisi shu jarayonda erishilgan darajani bildiradi.

Haqiqatan xam urbanizatsiya jarayoni, shaharlarning paydo bo'lish hamda taraqqiy etish jarayonini qamrab oladi. Biroq, uning mazmuni shundagina iborat emas. Odamlar va narsalarning bir joyda zich, qalin joylashganligini urbanizatsiyalanganlik alomati, deb xisoblash mumkin emas. Chunonchi, jahonning rivojlangan mamlakatlarida shahar aholisining salmog'i yuqori darajada ko'tarildi, lekin shunga qaramay urbanizatsiya jarayoni davom etmoqda. Bu mamlakatlarda urbanizatsiya faqat kengayishdangina emas, balki chuqurlashishda xam, mazkur jarayonning ichki differentsiatsiyasi yuli yuli bilan chuqurlashishda xam namoyon bo'lmoqda.

Urbanizatsiyani G.M. Lappo birmuncha keng ma'noda talqin etadi. U bu tushunchasi ta'riflash uchun boshqa kriteriyalarni, ya'ni mamlakat iqtisodiyoti, siyosati va madaniyatida katta shaharlar saviyasining kuchayishi, shahar aglomeratsiyalarining o'sishi, qishloqlararo aloqalarning intensiv rivojlanishi va hokazolarni taklif etadi.

Biroq, urbanizatsiyaning hozirgi bosqichida urbanizatsiyani tor ma'noda tushunishning o'zi etarli emas. Balki, eng ko'p darajada urbanizatsiyalashgan mamlakatlarda urbanizatsiyaga eng avvalo, sifat o'zgarishlari xosdir. Urbanizatsiyani ko'p qirrali ijtimoiy iqtisodiy jarayon sifatida keng ma'noda tushunish lozim. Urbanizatsiya keng ma'noda tushunish uni o'rganishning aspektlarini ya'ni iqtisodiy demografik, sotsial, entik, geografik, ekologik jihatlarini ajratib olish imkonini beradi. Birinchidan, urbanizatsiyaning umumiy nazariyasini ishlab chiqish uchun, ikkinchidan mazkur muammoni tadqiq etishda ayrim fanlarning o'rni va rolini aniqlash uchun, qolaversa, urbanizatsiya jarayoni bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ko'pgina amaliy muammolarni hal qilish uchun urbanizatsiyani o'rganishga kompleks yondashish darkor.

Shunday qilib, urbanizatsiya juda katta, ko'pqirrali sotsial iqtisodiy jarayondir. Jahonning rivojlanayotgan mamlakatlarida urbanizatsiya milliy iqtisodiyot va madaniyatni rivojlantirish omillaridan biriga aylantirilmoqda. Ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda urbanizatsiya darajasi nisbatan, past, ayni shu chog'da ularda urbanizatsiyalashish sur'ati juda yuqoridir. Qishloq aholisi talabining o'sishiga qaraganda ko'proq ko'chib kelmoqda. Natijada urbanizatsiya industrilashga qaraganda, tez sur'atlarda o'sib borayotir.

Shaharlar – kishilar zich yashaydigan va aksari sanoat, transport, madaniy va ma'muriy – siyosiy jarayonlarni bajaradigan aholi punktlaridir. Shaharlarda yashaydigan aholining ulushi mamlakat yoki rayonning urbanizatsiyalashganini va sanoatlashganini ko'rsatadigan eng muhim ko'rsatkichdir. Bir qancha mamlakatlarda aholining ko'pligi yoki ma'muriy rol shahar mezoni xisoblanadi. Shaharlar aholi soniga karab turlicha tasnif kilinadi: 10 mingdan 20 minggacha aholisi bo'lgan shaharlar kichik shaharlar, 50 – 100 ming aholisi bo'lgan shaharlar o'rtacha shaharlar, 100 – 500 ming va 500 – 1 mln. aholisi bo'lgan shaharlar katta shaharlar, aholisi 1 mlndan ortik shaharlar «millioner» shaharlar xisoblanadi.

Shahar aholi punktlari muayyan hududda bir – biriga qo'shilib, deyarli yoppasiga shahar xosil qilish shaharlar aglomeratsiyasi deyiladi. Urbanizatsiyalashgan hududlar – shaharlar kengayishi va ularning o'z ma'muriy

chegaralaridan chiqib ketishi jarayonida paydo bo'lgan geografik hududlar. Urbanizatsiyalashgan hududlar bir shaharni yoki bir necha shaharlarni hamda ma'muriy jihatdan shahar chegarasiga kiritilgan shahar atroflari va aholi punktlarini o'z ichiga oladi. Urbanizatsiyalashgan hududlar tushunchasi 1950 yil aholi ruyxati paytida shahar va qishloq aholisini xisoblab chiqarish uchun AQSh da joriy kilingan.

Cuburbanizatsiya – yirik shaharlar shahar atrofi zonasining o'sishi va rivojlanishi jarayoni: buning oqibatida shahar aglomeratsiyalari tarkib topadi. Suburbanizatsiya jarayonida shaharlarga aglomeratsiyalar markazlariga nisbatan shahar atrofi va yo'ldosh shaharlar aholisi tezroq sur'atlar bilan o'sadi. Shunday qilib, suburbanizatsiya deyilganda, shahar atroflarining tez sur'atlar bilan o'sish jarayoni tushuniladi. Bu termin ancha o'rinlidir, chunki u shahar atroflarining urbanizatsiyalashishi shaharlarga aylanishi degan ma'noni anglatadi. Shuni nazarda to'tish kerakki, shaharlar hududlarining kengayishi, qo'shni shaharlarning bir – biriga qo'shilib ketishi yirik shaharning boshqa aholi punktlarini va tevarak atrofdagi hududlarni «yutib» yuborishidan iborat bo'ladi. Suburbanizatsiya aglomeratsiya jarayonining bir qismidir. Uning oqibatida shahar atroflari rivojlanadi. Aglomeratsiya jarayonida esa aholi joylashishining shaharga xos ko'rinishlari namoyon bo'ladi.

Mamlakatlar urbanizatsiya darajasi va sur'atlari jihatidan bir – biridan katta farq qiladi. Amerika, Avstraliya va Evropa urbanizatsiya eng yuqori darajaga etgan, bu kit'alardagi ko'p mamlakatlarda shahar aholisining ko'payish sur'atlari katta emas, Osiyo va Amerikaning ko'pchilik mamlakatlarida, aksincha urbanizatsiya darajasi hali juda past, lekin uning o'sish sur'atlari yuqoridir.

Urbanizatsiya darajasini takkoslaganda, xamma mamlakatlar uchun yagona bo'lgan «shahar» tushunchasi yukligini e'tiborga olmok kerak. Masalan, Daniya aholisi 200 dan ortik bo'lgan aholi punktalir, Niderlandiyada esa aholisi 20 mingdan ortik bo'lgan aholi punktlari shahar deyiladi. Afrika va Lotin Amerikasining ko'p mamlakatlarida aholisi soni kat'iy nazar barcha ma'muriy markazlar shahar deyiladi.

Shahar va qishloq aholisi- aholi kategoriyalari bo'lib, uning shahar va qishloq aholi punktlarida yashash tarkibini ko'rsatadi. Shahar aholisi bilan qishloq aholisi punktlari tiplarga bo'linishi asosida farqlanadi. Aholi punktlarini qishloq aholi punktlari va shahar aholi punktlariga kiritish mezonini turli mamlakatlarda turlichadir. Shahar va qishloq aholisining nisbati, ularning umumiy aholi sonidagi salmog'i mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti ko'rsatkichlaridan biridir.

Qishloq aholisi– Shaharlar juda tez o'sayotganligiga qaramay, hozircha dunyo aholisining ko'pchilik qismi qishloq joylarda yashaydi. Evropa bilan Shimoliy Amerikada barcha qishloq aholisi qishloq xo'jaligi bilan band bo'lmagan holda, Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi mamlakatlarida qishloq aholisi bilan qishloq xo'jalik aholisi o'rtasida farq deyarli yuk.

Qishloq aholi punktlarining joylashish shakllari xamma joyda bir xil emas. Ular mamlakat xo'jaligining rivojlanish yunalishlariga va ijtimoiy sharoitga bog'liq. Odatda, qishloq aholi punktlarining to'p to'p bo'lib joylashish shakli ustun turadi. Lekin ba'zi mamlakatlar va rayonlarda qishloq aholi punktlarining aloxida firmalar, qo'rg'onlar shaklida tarqoq joylashishi tarqalgan. Yaylov chorvachiligi bilan shug'ullanadigan hududlarda hozirgacha ko'chmanchilik bilan hayot kechirish tez – tez uchrab turadi. Bu erlarda doimiy aholi punktlari bulmaydi.

Fan – texnika taraqqiyoti– bilan ishlab chiqarish, fan – texnika va boshqa sohalardagi eng yangi jarayonlar bilan o'zviy aloqadorlik hozirgi urbanizatsiyaning asosiy xususiyatidir. Agar tarixiy taraqqiyotning oldingi bosqichida urbanizatsiya industrlash bilan chambarchas bog'liq bo'lgan bo'lsa fan–texnika taraqqiyoti sharoitida esa urbanizatsiya jarayoni rivojlantirishda moddiy ishlab chiqarish bilan bir qatorda bilim, xizmat ko'rsatish sohasi, boshqaruv, ma'lumot borgan sari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ijtimoiy hayotning barcha tomonlariga tubdan o'zgartiradigan darajada ta'sir ko'rsatuvchi hozirgi fan–texnika taraqqiyoti sharoitida shaharning, shahar turmush tarzining ahamiyati oshib bormokda. Biroq, urbanizatsiya faqat shaharni qamrash bilan cheklanib qolmaydi. Shahar va qishloq bizning davrimizda bir–biriga chambarchas bog'langan va o'zaro ta'sir ko'rsatib turadi.

Sanoat ishlab chiqarishning qishloq xo'jaligi bilan yaqinlashuvi shaharlarning o'sishi qishloq aholisining muayyan qismini sanoat korxonalariga jalb etadi, bu esa o'z navbatida qishloq aholisining ijtimoiy – professional to'zulishini o'zgartiradi.

Industralashtirish – sanoatlashtirish zamonaviy korxonalar qurish ishlab chiqarishning barcha tarmoqlariga fan va texnika yutuqlarini joriy qilish yuli bilan rivojlangan sanoatni bunyod etish. Sanoatlashtirishning shakl, metod, sur'at va bosqichlari asosan tarixiy va ijtimoiy–iqtisodiy sharoitlarga, dastlabki iqtisodiy taraqqiyot darajasiga va halqaro ahvoriga bog'liqdir. Sanoatlashtirishni birinchi bo'lib, amalga oshirgan Angliyada dastlab engil sanoatda eng avval to'qimachilik sanoatida qo'l mexnatidan mashina mexnatiga o'tish bu jarayonning asosiy mazmuni edi, so'ngra kapital to'plana borgan va asbob – uskunalarga extiyoj o'sib borgan sari og'ir sanoat rivojlandi, qishloq xo'jaligi eng oz xolatga keltirildi. Sanoatlashtirish yuliga kirgan AQSh, Germaniya va boshqa mamlakatlar keyinchalik shu jarayonni jadallashtirish uchun Angliya tajribasidan va fan–texnika yutuqlaridan foydalandilar, engil sanoat biroz taraqqiy etishi bilanoq bu mamlakatlar og'ir sanoatni barpo etishga va ishlab chiqarishni kontsentratsiyalashga kirishdilar.

O'tmishda agrar mamlakat bo'lgan mamlakatimizda sanoatlashish bilan bog'liq bo'lgan urbanizatsiya sur'atlari o'ta darajada tez bo'ldi. 1926 yilda aholining 18 % i , 1940 yilda 33 % i, 1959 yilda 48%i, 1970 yilda 56 %i, 1984 yilda 65%i shaharlarda yashadi. Kit'alar buyicha va ayrim mamlakatlarda urbanizatsiya darajasi 1980 yilda quyidagicha bo'ldi: Shimoliy Amerikada 76%, jumladan: AKSh da 77%, Horijiy Evropada 70.5%, jumladan: Buyuk Britaniyada: 91%, GFR da 85%, horijiy Osiyoda 28.4%, jumladan: Yaponiyada 78%, Afrikada 28.9% jumladan JAR da 50% ni tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasi qonunlariga ko'ra, qishloq aholi punktini shaharga aylantirish uchun aholisi 7 ming kishi bo'lishi, shahar tipidagi posyolkaga aylantirish uchun 3 ming kishi bo'lishi, ayni vaqtda aholining kamida 85% i ishchi va xizmatchilardan, hamda ularning oila a'zolaridan iborat bo'lishi

kerak. Boshqa respublikalarda qishloq aholini punktini shaharga aylantirish mezonlari biroz farq qiladi. Xar bir mamlakatda va xatto yirik rayonda shaharlar ishlab chiqarish, ma'muriy, madaniy va boshqa sohalarda bir – biriga bo'yso'ngan bo'lib, ierarxik sistemani xosil qiladi.

Jahon aholisining joylashishi ko'p jihatdan shaharlar geografiyasi aholisi asosan sanoat, savdo va qishloq xo'jaligidan boshqa sohalarda shug'ullanadigan katta istiqomatgohlar bilan belgilanadi. Bunda shaharlar aholining katta qismini bir joyga to'plab, faqat atrofdagi rayonlarning ma'muriy xo'jalik va madaniy markazigina bo'lib qolmay balki ular bilan bog'langan yullar orqali qishloqlardagi aholi yashaydigan punktlarning joylashishi va o'sishi xam kuchli ta'sir etuvchi omil xisoblanadi.

Horijiy Evropa urbanizatsiyasi darajasi jihatidan jahonda Avtraliyadan so'ng ikkinchi o'rinda turadi. Hozirgi vaqtda Horijiy Evropa shaharlarida bu erdagi butun aholining yarmidan ko'proq qismi yashaydi. Sanoat taraqqiy etgan mamlakatlar – Buyuk Britaniya(kariyb 80%i), Germaniya (78 %ga yaqin) va boshqa mamlakatlarda shahar aholisining salmog'i yuqori bo'lib, ularda urbanizatsiya jarayoni 19 asrdayoq to'htagan. Hozirda Horijiy Evropaning barcha davlatlari sanoat jihatidan ilgariyok taraqqiy etgan bo'lib, urbanizatsiya sur'atining yuqoriligi bilan ajralib turadi.

Horijiy Osiyo urbanizatsiya sur'ati jihatidan 19 asrda Evropa davlatlaridan orqada qoldi. Bu erda shaharlarning o'sishi XX asrdan, ayniqsa, o'sha asrning keyingi yillaridan boshlab rivojlandi.

Hozirgi vaqtda Horijiy Osiyoda urbanizatsiya darajasi jihatidan ikki mamlakat Isroil va Yaponiya aloxida ajralib turadi. Yaponiyaning shahar aholisi xatto kamaytirib xisoblaganda xam so'nggi yillar ichida ikki barobarga o'sdi, bunday tez urbanizatsiyaning birinchi sababi qishloqda shaharga surib chikarilayotgan mayda erli yapon dexqonlari sonining ko'payishidir. Osiyoning yirik davlatlari Xitoy, Xindiston, Pokiston, Indoneziya ayrim shaharlarning tez sur'atlarda usganiga qaramay hozirgacha urbanizatsiya darajasi pastligicha qolmoqda. Bu davlatlarda aholining asosiy qismi dexqonlardir.

Urbanizatsiya darajasi O'zbekiston misolida ko'rib chiqadigan bo'lsak O'zbekiston aholisi tabiiy ko'payish va respublikalardan ko'chib kelayotganlar xisobiga tez ko'payimokda. Aholishunos olimlarning fikricha 2010 yilda O'zbekiston aholisining soni hozirgiga nisbatan 12–14 mln ko'p bo'ladi.

Aholining tabiiy ko'payish sur'ati urushgacha bo'lgan darajaga 1950 yildan so'nggina tenglashadi. Endilikda aholining tabiiy ko'payishi yiliga 2.9 % ni tashkil etmoqda tabiiy ko'payishning yuqoriligi yalpi aholi sonida yoshlar salmog'ining katta, o'z navbatida, mexnat resursini tashkil etadigan mexnatga yaroqli kishilar salmog'ining esa kichik bo'lishiga sabab bo'ladi.

1989 yilda o'tkazilgan aholi ruyxati ma'lumotlariga ko'ra respublikamizda 100 dan ortik millat, milliy gurux va elatlar bor. Ular turli joylardan turli sabablar bilan kelib urnashgan, millatlar namoyondalaridir. Shaharlar sonining ortishiga xamoxang shahar aholisining soni xam ortib bormokda.

Tabiiy, iqtisodiy va tarixiy sabablarga ko'ra, O'zbekiston qishloqlarining aholisi ko'p va qishloqlar bir – biriga yaqin joylashgan. O'tmishda ko'chmanchi kabilalarning xujumlarini daf etish zaruriyati hamda obikor dexqonchilikda qo'l mexnatining ko'p qo'llanilishi tufayli qishloqlarda aholi azaldan zich yashab kelmoqda. O'zbekiston qishloqlarning bunday xususiyatlari ularning aholisiga shahardagidek sharoit yaratish umuman shahar bilan qishloq o'rtasidagi tafovutni yo'qotishda qo'lay omil xisoblanadi.

1.2. Urbanizatsiya jarayoni va shaharlar geografiyasi

“Urban” (urban)–shahar, “zatsiya”-jarayon demakdir. Shu ma'noda urbanizatsiya mamlakat yoki boshqa hududlarning shaharlashuvini anglatadi. U o'ta murakkab, ijtimoiy-iqtisodiy va butun dunyoga xos global jarayondir. Biroq uning geografik jihatlari kam emas, chunki urbanizatsiya turli mamlakat va rayonlarda o'zgacha sodir bo'ladi.

Urbanizatsiya murakkab hodisa ekanligi tufayli uni faqat bitta mezon, ko'rsatkich bilan ifodalash, o'lchash mumkin emas. Ammo shunday bo'lsada, barcha uchun qulay bir o'lchov kerak. U ham bo'lsa, mamlakat va boshqa hududlar

aholisining qanchasi, qancha qismi shahar joylarda yashashi, ulushi, nisbiy hissasidir.

Urbanizatsiyaning umumiy ko'rsatkichi bilan mamlakat iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasi va uning tarkibiy tuzilishi orasida ma'lum aloqadorlik bor. Chunonchi, agar urbanizatsiya koeffitsienti taxminan 70-75 va undan ortiq bo'lsa, u xolda mamlakat sanoat jihatdan yuksak darajada rivojlangan industrial mamlakat hisoblanadi. 50-70 % -bu ham rivojlangan, milliy iqtisodiyoti industrial-agrar, 30-50 % -rivojlanayotgan agrar-industrial va 30 % dan past bo'lsa, sust rivojlangan agrar mamlakat holatida bo'ladi.

Ammo, shuni alohida ta'kidlash joizki, urbanizatsiyaning yuqoridagi ko'rsatkichi hamma vaqt va hamma joylarda ham real hududiy-iqtisodiy vaziyatni aks ettirmaydi. Masalan, Rossiya Federatsiyasining Chukotka o'lkasida yoki Kamchatka, Magadan viloyatlarida, o'zimizning Qoraqalpog'istonda urbanizatsiya ko'rsatkichi nisbatan yuqori. Biroq, bu hududlar iqtisodiy jihatdan uncha rivojlanmagan.

O'zbekiston bilan Turkmanistonni o'zaro solishtirish, urbanizatsiyaning demografik ko'rsatkichi Turkmanistonda biznikidan ko'ra ancha yuqori, vaholanki, iqtisodiyotda bunday xulosa chiqarish noto'g'ri bo'lardi.

Demak, u yoki bu mamlakat urbanizatsiya darajasini boshqa mamlakat bilan qiyoslaganda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

-shahar tashkil qilish mezonlari (masalan, Turkmanistonda buning uchun 5 ming aholi kerak, O'zbekistonda- 7 ming);

-shaharlarning umumiy soni va zichligi;

-yirik shaharlarning mavjudligi;

-shahar aglomeratsiyalarining rivojlanganligi;

-qishloq-shahar va mayatniksimon migratsiya;

-aholining bandlik darajasi va tarkibi;

-qishloq joylar urbanizatsiyasi, qishloqliklarda shaharchasiga yashash tarzining mavjudligi va h.k.

Yuqoridagilar urbanizatsiyaning naqadar murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisa ekanligidan dalolat beradi.

Albatta, urbanizatsiya-bu ob'ektiv va umuman olganda ijobiy jarayon. Ammo, uning salbiy tomonlari ham yo'q emas. Chunonchi, ekologik va sotsial muammolarning keskinlashuvi hozirgi zamon urbanizatsiyasining eng ko'zga ko'rinarli salbiy "yo'ldoshlaridir".

Urbanizatsiya – bu murakkab ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va geografik jarayon bo'lib, bu jarayon uchun dunyoda yoki muayyan bir davlatda shaharlarning va shahar aholisi sonining oshib borishi muhim o'rin tutadi. Urbanizatsiya jamiyat taraqqiyotida shaharlar mavqeining oshib borishi, aholi va ishlab chiqarish kuchlarining joylashishidagi o'sish ko'rsatkichlari, insonlar yashash tarzining, fan va madaniyatning rivojlanishi kabi xususiyatlar bilan xarakterlanadi. Davlatning urbanizatsiyalashganlik darajasi umumiy aholi tarkibida shaharlarda istiqomat qilayotgan aholi miqdorining salmog'i bilan baholanadi. Shaharlarning rivojlanishi esa jamiyat iqtisodiy va ijtimoiy sohalarining ham taraqqiyotida hamda aholi turmush darajasi va hayot tarzini yaxshilashga xizmat qilishi bilan tavsiflanadi. Turli davlatlarda shaharlarning taraqqiy etishi, urbanizatsiya jarayonining rivojlanishi ishlab chiqarish, iqtisodiyot, moliya, transport, infratuzilma va boshqa sohalarining o'zaro aloqadorligi natijasida ham yuzaga keladi. Bizning hududimizda esa shaharlar dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo va shu kabi milliy an'analar negizida rivojlanib kelgan. Aholining ko'proq ana shu sohalarida band bo'lishi, tovar ishlab chiqarish miqdorining hamda miqyosining oshib borishi shaharlashuv jarayonining yuzaga kelishiga va rivojlanishiga zamin bo'lib xizmat qilganligi tarixiy manbalardan ma'lum.

Hozirgi kunda dunyo miqyosida kechayotgan demografik jarayonlar va ularning urbanizatsiyalashuv jarayoni, shahar va qishloq aholisi dinamikasi, shaharlarning o'sish sur'atlariga ta'siri dolzarb masalalardan biri bo'lib, ko'plab mutaxassislarning e'tiborini o'ziga tortmoqda. Ma'lumki, Birlashgan Millatlar Tashkilotining mazkur masalalar bilan maxsus shug'ullanuvchi aholishunoslik jamg'armasi (UNFPA) mavjud bo'lib, ushbu jamg'arma tomonidan dunyoning

ko'plab mamlakatlarida aholi bilan bog'liq masalalar o'rganilib kelinmoqda. Mazkur tashkilotning 2016 yildagi ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisining 47 %i shaharlarda istiqomat qilayotgan bo'lib, mutaxassislarining taxminlariga qaraganda, 2030 yilga kelib bu ko'rsatkich 60 %ga yetishi mumkin. Lekin, urbanizatsiyalashuv darajasi dunyo miqyosida bir xil emas, ya'ni bu ko'rsatkich rivojlangan davlatlarda 76 % bo'lsa, rivojlanayotgan davlatlarda 41 %ni tashkil qiladi. Urbanizatsiya darajasining yuqoriligi shaharlar soni va ularda istiqomat qiluvchi aholining ko'p-ozligi bilan belgilanib, ijtimoiy taraqqiyot, madaniyat, fan, san'at kabi sohalardagi ahvol va o'zgarishlarni ifodalaydi.

Urbanizatsiya jarayonlarining paydo bo'lishiga shaharlarda sanoatning o'sishi, shaharlarning jamiyat hayotida madaniy va siyosiy rolining oshishi, hududiy mehnat taqsimotining kuchayishi sabab bo'ldi. Quyidagilarni urbanizatsiya jarayonlarining omillari sifatida ko'rsatishimiz mumkin:

- a) shahar aholisining tabiiy o'sishi;
- v) qishloqdagi aholi yashaydigan mintaqalarda shaharlarning bunyod bo'lishi;
- s) shahar atrofida yangi aholi yashaydigan joylarning paydo bo'lishi;
- d) qishloq aholisining shaharga migratsiyasi.

Urbanizatsiyaning hozirda asosiy xususiyatlari birinchidan, qishloq aholisining shaharlarga ko'chishida, ikkinchidan, aholining ko'proq yirik shaharlarda to'planishida, uchinchidan, mayatniksimon migratsiyaning o'sishida, to'rtinchidan, shahar megapolislarining paydo bo'lishida namoyon bo'lmoqda.

Insoniyat o'z tarixining ko'p qismini qishloqlarda, agrar mehnat qilib o'tkazdi. Ammo insoniyatning hozirgi tarixida shaharlar, shaharlashuv jarayonlari kuchayib ketdiki, bu jarayon o'z navbatida ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shuning uchun urbanizatsiya muammolari turli mutaxassislar tomonidan o'rganib kelinmoqda.

Yer yuzida eng qadimgi shahar Rim bo'lgan. 1800 yilda Pekin millioner shahar bo'ldi. Keyinchalik esa Nyu-York va London shaharlari ham bu ro'yxatdan joy oldilar. XIX asrning boshlarida faqatgina 4 % dunyo aholisigina shaharlarda istiqomat qildi. Urbanizatsiya jarayonlarining kuchayishiga sanoatning o'sishi

katta turtki bo'ldi. Shaharlarda ko'plab sanoat korxonalarining paydo bo'lishi oqibatida yollanma bo'lib ishlash uchun asosan qishloqlardan dehqonlar, boshqa davlatlardan emigrantlar kela boshladilar. Natijada 1950 yilda yer yuzi aholisining 30 %i shaharlarda yashay boshladi, dunyoda 83 ta aholisi 1 mln.dan ortiq bo'lgan shaharlar paydo bo'ldi. Bu davrda dunyoning eng yirik shaharlari Nyu-York, London, Tokio, Parij, Moskva, Chikago va Essen deb e'tirof etilgan.

XX asrda urbanizatsiya jarayonlari yanada kuchaydi va bu davrga kelib BMTning ma'lumotlariga qaraganda, dunyo aholisining 74 %i shaharlarda yashay boshladi. Rivojlangan davlatlar aholisining 76 %i, rivojlanayotgan davlatlar aholisining 40 %i shaharliklarni tashkil etdi. Uchinchi dunyo mamlakatlari aholisining 1,7 mlrd. qismi shaharlarda yashamoqda. BMT hisoblariga qaraganda, 2025 yilda dunyodagi shahar aholisining hissasi 63 %ni tashkil etar ekan. Bundar tashqari, yer sharidagi butun aholining yarmiga yaqin qismi Sharqiy va Janubiy Osiyoda jamlanar ekan. Bu davrga kelib Afrika va Janubiy Amerikaning shahar aholisi son jihatdan Yevropa shaharlari aholisining sonidan ortib ketadi.

Urbanizatsiya, ya'ni mamlakat yoki boshqa hududlarning shaharlashuvi, yuqorida keltirilganidek, shahar aholisining nisbatan tez o'sishi va uning salmog'ini oshib borishi, yirik shaharlar, xususan shahar aglomeratsiyalarining tez rivojlanishi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayondir. Ushbu jarayon qishloq-shahar yo'nalishida aholi migratsiyasining kuchayishi, qishloq xo'jaligi bo'lmagan tarmoqlarning ustuvor rivojlanishi, shaharlarga xos hayot tarzining qishloq joylarda tarqalishi va boshqalarda o'z aksini topadi. Binobarin, uni ijtimoiy taraqqiyotdan ajratgan holda talqin qilish mumkin emas.

Hozirda jahon urbanizatsiyasini quyidagicha ifodalash mumkin:

Birinchidan, urbanizatsiya jarayonlari hozirgi dunyoda ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'sirida vujudga kelgan ijtimoiy jarayondir.

Ikkinchidan, urbanizatsiya jarayonlari barcha davlatlarda ham bir xilda rivojlanmaydi. Har bir davlatning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari o'sha davlatdagi urbanizatsiya jarayonlariga katta ta'sir ko'rsatadi.

Uchinchidan, globallashtirish jarayonlari urbanizatsiya jarayonlarini tezlashtiradi.

To‘rtinchidan, urbanizatsiya jarayonlari ko‘plab ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik muammolarni keltirib chiqaradi. Bular havoning ifloslanishi, jinoyatchilikning o‘sishi, shaharlarda ishsizlik darajasining ortishi, ichimlik suvining yetishmasligi kabi muammolardir.

Urbanizatsiya jarayonlarini keltirib chiqarayotgan muammolarini hal qilish, bu jarayonning har bir davlat, umuman dunyo miqyosida talofatlarsiz borishi butun dunyo davlatlarining birgalikdagi samarali hamkorligini taqozo etadi. So‘nggi yillarda jahon urbanizatsiyasida o‘ziga xos xususiyatlar yuz bermoqda. Ular quyidagilar:

- ✓ rivojlangan mamlakatlarda urbanizatsiya jarayonining sifat jihatdan o‘zgarishi, uning demografik ko‘rsatkichlarini barqarorlashuvi;
- ✓ rivojlangan mamlakatlarda shaharlar va shahar aholisining tez o‘sishi;
- ✓ urbanizatsiya yuqori darajaga yetgan davlatlarda suburbanizatsiya jarayonining avj olishi;
- ✓ shaharlarning murakkab hududiy tizimlarini (shahar aglomeratsiyalari, megapolis va megalopolislarning) ko‘payishi;
- ✓ ayrim mamlakatlarda urbanizatsiya darajasining pasayishi (deurbanizatsiya holatlarining kuzatilishi);
- ✓ qishloq va shahar aholisi tabiiy harakatidagi farqlarning qisqarishi va h.k..

Hozirgi kunda Yer yuzining taxminan yarim aholisi (jami aholi 6,5 mlrd.kishi) shahar joylarda yashaydi. Bu ko‘rsatkich turli mamlakatlarda turlicha. Masalan, Yevropaning ayrim mamlakatlarida 75 % dan ortiq. Shuningdek, urbanizatsiyaning demografik ko‘rsatkichi Yaponiyada ham yuqori. Bunday davlatlarda mazkur ko‘rsatkichlarning ko‘tarilishi to‘xtab, ularda an’anaviy urbanizatsiya o‘zgacha tus olmoqda.

Ma’lumki, yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti industriyadan ya’ni, sanoatlashuv bosqichidan o‘tib, sanoatdan keyingi (postindustrial) davrni boshdan kechirmoqda. Bunday sharoitda yangi texnologiyalar, axborot, turizm kabilarning rivojlanishi mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va urbanizatsiyasini belgilab bermoqda.

Ayni vaqtda sanoat ishlab chiqarishning, ayniqsa, uning sermehnattalab va ekologik jihatdan “xavfli” tarmoqlarning rivojlangan davlatlardan rivojlanayotgan mamlakatlarga “ko‘chishi” ularning iqtisodiyoti va urbanizatsiyasiga jiddiy o‘zgarishlar kiritmoqda. Masalan, Shimoliy Afrika mamlakatlari G‘arbiy Yevropa, Lotin Amerikasi davlatlari AQSH ta’sirida rivojlanib borsa, Xitoy, Janubiy Koreya, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining tez rivojlanishi va buning oqibatida urbanizatsiya ko‘rsatkichining ko‘tarilishi ko‘p jihatdan Yaponiyaning taraqqiyoti va uning globallashuv jarayonidagi mavqeining oshib borishi bilan bog‘liq.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, oxirgi yillarda rivojlangan mamlakatlarda yirik shaharlar va shahar aglomeratsiyalari aholisining o‘sishi ancha kamaygan. Natijada Milan, Berlin, Filadelfiya, Neapol, Gamburg, Boston aglomeratsiyalarining mavqei pasayib, ularning o‘rinlarini Dehli, Seul, Jakarta, Shanxay, Lagos, Stambul, San-Paulo, Tehron, Bangkok, Karachi va boshqalar egallamoqda. Shu bois, kelajakda oldingi mavqeini Nyu-York, London, Tokio, Osaka yoki Parij emas, balki Bombay, Lagos, Shanxay, San-Paulo, Mexiko, Pekinga o‘xshash “dunyoviy shaharlar” egallashadi. Rossiyada ham bunday o‘zgarishlar yuzaga kelgan: Sank-Peterburg, Moskva kabi yirik shaharlarning o‘sish sur‘ati pasaygan. Volgograd, Rostov-Don esa “millioner” shaharlar guruhini tark etdi. Hozirgi davrda Rossiyada urbanizatsiya darajasi 73 % ga teng va uning avvalgidek ko‘tarilib borishi kutilmayapti.

1.3. O‘zbekistonda urbanizatsiya rivojlanishiga hos hususiyatlar

Barcha iqtisodiy geografik ob’ektlar ichida shaharlar o‘zini yaxlitligi, lo‘ndaligi bilan ajralib turadi. Chunki, ular siyosiy- ma’muriy yoki iqtisodiy geografik markazlar xisoblanadi. O‘z navbatida shaharlar juda murakkab ob’ekt hamdir.

Shaharlarning o‘tmishi, hozirgi ahvoli, hududiy joylashuvi va istiqbollari ko‘p fanlarni qiziqtirib, ularning doimo diqqat markazida bo‘lib kelgan. Shuning uchun shaharlar ko‘p fan vakillari tomonidan keng o‘rganiladi.

Urbanizatsiya XVIII asrda Evropada sanoat inqilobi tufayli tarkib topdi va kuchaya bordi. Urbanizatsiyaning ijobiy tomonlari bilan birga salbiy jihatlari ham bor. Shuning uchun urbanizatsiya bilan bog'lik muammolar hozirgi davrning eng dolzarb masalalaridan biriga aylanib ulgurdi.

Shaharlar kishilik jamiyatning tengdoshi bo'lib, ularning paydo bo'lishi, shakllanishi va tarixiy taraqqiyoti insoniyat tarixi bilan chambarchas bog'langan. Er sharidagi eng kadimiy shaharlar Kadimgi Bobil, Misr, Vavilon, qadimgi Rimda paydo bo'lgan.

Shaharlar kelib chiqishiga eng avvalo ijtimoiy mexnat taqsimoti sabab bo'lgan. Ma'lumki, dexqonchilikning chorvachilikdan ajralib chiqishi natijasida dastlabki mehnat taqsimoti paydo bo'ldi. Ammo buning natijasida shaharlar vujudga kelmadi. Dexqonchilik, ayniqsa sug'orma dexqonchilikning rivojlanishi aholining o'troqlashishiga olib keldi, doimiy aholi punktlarini vujudga keltirdi. Sug'orish inshootlarining qurilishi, ularni ximoya qilish tufayli kishilarning birgalikda jamoa bo'lib yashashiga olib keldi. Natijada aholi punktlari kattalashib, yiriklashib bordi.

Keyinchalik dexqonchilikdan xunarmandchilik va savdo ajralib chiqdi. Bu esa shaharlarning paydo bo'lishiga asos bo'ldi. Shaharlar sinfiy jamiyat bilan tengdosh. Ammo borgan sari shahar bilan qishloq o'rtasida farq ortib, shaharlarning ustuvorligi sezilib boradi.

Agrar davrda shaharlar xunarmandchilik va qul (inson) bilan savdo qilishdi. O'rta asrlarda xunarmandchilik manufakturaga etdi, savdoda esa asosiy rol ni yer egalladi. O'rta asrlarda shaharlarning ham o'z yeri bor edi. Sanoat inqilobi davriga kelib shaharlarning xukmronligi (gegemonligi) yanada kuchayib ketdi. Endi ular sanoat, transport (ayniqsa, temir yul va dengiz) va boylik ortirish (kapital) markazlariga aylandi. Shu davrga kelib Osiyo va Evropa shaharlari o'rtasidagi farq sezila boshlandi. Agar Evropa tipidagi shaharlar yirik sanoat, moliya va kapital markazi bo'lsa, Osiyodagi shaharlar o'zining kelib chiqishiga ko'ra sug'orma dexqonchilik madaniyati markazi va savdo-sotiq bilan bog'liq bo'lib qoldi.

Respublikada XX asr 60-yillaridan shaharlar geografiyasi tezlik bilan o'rganila boshladi. Qisqa davr ichida bu fan tezlik bilan rivojlandi. Bugungi kunda shaharlar geografiyasi iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining muhim bir qismiga aylandi. Shaharlar ishlab chiqarish kuchlarni hududiy tashqil etilishining asosiy bo'g'inlardan biri bo'lib, iqtisodiy geografik tadqiqot ob'ektlari ichida o'ziga xos xususiyatga ega. Shaharlar mamlakat va rayonlar iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasini o'zida yakkol mujassamlashtiradi, milliy iqtisodiyot, ilmiy-texnik taraqqiyot va siyosiy mustaqillikni mustaxkamlashda yetakchi rol o'ynaydi.

Ilmiy manbalarda ko'rsatilishicha, shaharlar makomini belgilashda aksariyat xollarda quyidagi asosiy ikkita belgi xisobga olinadi:

- Aholi soni;
- Band aholining iqtisodiyot tarmoqlarida taqsimlanishi.

Shahar statusini berishda shaharda qancha aholi yashashi kerakligini aniqlash bo'yicha qo'yiladigan talablar jahon mamlakatlarida turlicha bo'lib ular bir-biridan tubdan farq qilish mumkin. Aholi soniga qarab shahar statusini berishda jahonning ayrim mamlakatlarida quyidagicha talablar qo'yilgan: Daniya, Shvetsiya, Finlandiya, Islandiya - 200 kishi, Kanada, Avstraliya - 1000 kishi, Germaniya, Frantsiya, Kuba - 2000 kishi, AQSh va Meksika - 2500 kishi, Avstriya, Xindiston, Eron, Madagaskar - 5000 kishi, O'zbekistan - 7000 kishi, Shveytsariya, Malayziya - 10000 kishi, Rossiya - 12000 kishi, Nigeriya, Gollandiya - 20000 kishi, Yaponiya - 30000 kishi, Koreya Respublikasi - 40000 kishi bo'lishi talab etiladi.

Respublikamizda aholi punktlarini shaharlar qatoriga kiritish masalasi borasida qo'yiladigan talablar ham yuqorida ko'rsatib o'tilganlardan katta farqqilmaydi.

Respublikamizda aholi punktlarini shaharlar qatoriga kiritish borasida qonun-qoidalarni ishlab chiqishda xar bir aholi punktining o'ziga xos tabiiy, iqtisodiy, tarixiy va boshqa xususiyatlari xisobga olinadi.

Mamlakatimizda aholi punktlariga shahar statusini berish uchun quyidagi talablar quyilgan:

1. aholi soni;

2. aholi mehnatning qanday turlari bilan band ekanligi (bunda aholining 2/3 qismidan ko'prog'i ishchi-xizmatchilar va ularning oila a'zolaridan iborat bo'lishi kerak);
3. mazkur aholi punktlarida sanoat korxonalari, ijtimoiy-kommunal xo'jalik tashqilotlari, uy-joy xo'jaligi, o'quv yurtlari, madaniy-ma'rifiy, tibbiy, savdo va umumiy ovkatlanish korxonalari, ijtimoiy infrastruktura tizimining mavjudligi.

Ma'lumki, shaharlar o'zo'zidan paydo bulmaydi. Unga ko'plab omillar o'z ta'sirini ko'rsatadi. Hozirgi paytda shaharlarni vujudga keltiruvchi omillar quyidagilar:

1. Sanoat (Chirchiq, Bekobod, Navoiy, Tolimarjon);
2. Transport (Kogon, Qo'ng'iroq, Oltinko'l, Baxt, Xovos);
3. Kurort (Chortoq, Pyatigorsk, Essentuki, Mineralnoye Voda);
4. Konlar (Angren, Olmalik, Zarafshon, Muborak, Qorovulbozor, Gazli);
5. Savdo (Samarkand, Qo'qon, Marg'ilon, Qorasuv);
6. Qurilish (Xonobod, Temiryulobod, Teyshtet, Jeleznogorsk- Ilimskiy, Severobaykalskiy, Magistralniy - BAM da);
7. Ilm-fan (Ulug'bek posyolkasi - fiziklar shaharchasi, Dubna (Moskva viloyati), Akademgorodok (Novosibirsk yaqinida), Tartu (Estoniya), Kembrij, Oksford, Garvard);
8. Qo'rik yerni o'zlashtirish (Guliston, Yangier, Paxtakor, Bo'z, Ulug'nor, Yozyovon, Jomashuy).

Bu omillar ichida eng muhimi sanoatdir. Sanoatning turli tarmoqlari turlicha yiriklikdagi shaharlarni vujudga keltiradi. Bu esa ishlab chiqarishning mujassamlashuviga (kontsentrantsiyasiga) bog'lik. Masalan, tikuv fabrikalari, qand va paxta tozalash zavodlarida ishlovchilarining umumiy soni ko'p emas, ammo metallurgiya, mashinasozlik korxonalarida ishchilar soni ko'p bo'ladi. Bunday shaharlarda aholining soni 100 mingdan ortib ketadi. Masalan, birgina metallurgiya kombinatida 20 minggacha ishchilar ishlaydi.

Respublikamizning kichik shaharlarida ACM tarkibiga kiradigan oziq-ovqat, paxta tozalash va to'qimachilik tarmoqlari rivojlangan. Ular yirik shaharlarni vujudga keltirishda katta ta'sir kuchiga ega emas.

Shaharlar bir-biridan kelib chiqishi emas, balki bajaradigan vazifasi (funktsiyasi) bo'yicha ham bir-biridan farqqiladi. Ayrim xollarda shaharning genetik xususiyatlari bilan ularning hozirgi paytda bajaradigan vazifasi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqadorlik mavjud bo'ladi. Umuman olganda shaharlarning funktsiyasi bu hududiy mexnat taqsimotining natijasidir. Buning natijasida esa shaharlarning ixtisoslashuvi vujudga keladi.

Mamlakatimizda ishlab chikilgan qonun-qoidalarga asosan O'zbekiston shaharlari respublika, viloyat va tumanga buysunuvchi "shaharlar toifasiga bulinadi.

Respublikaga bo'ysunuvchi shaharlar qatoriga eng yirik iqtisodiy madaniy va ma'muriy markazlar kiradi. Bunday shaharlarda yashagan aholi soni 500 ming kishidan ortiq bo'lishi talab etiladi.

Viloyat, jumladan Qorakalpog'iston Respublikasiga buysunuvchi shaharlar guruxiga muhim sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan iqtisodiy va madaniy markazlar hamda aholisi 30 mingdan kam bo'lmagan shahar va shaharchalar kiradi. Ba'zi xolatlarda, ya'ni sanoat va madaniy-siyosiy jihatdan aloxida ahamiyatga ega bo'lgan hamda ijgimoiy iqtisodiy taraqqiyot va aholi o'sishi nuqtai nazardan qulay istiqbolga ega bo'lgan ayrim shaharlar aholisi 30 mingdan kam bo'lgan takdirida ham viloyatda buysunuvchi shaharlar qatoriga kiritilishi mumkin.

Tumanga buysunuvchi shaharlar qatoriga sanoat korxonalar, ijtimoiy infrastruktura tizimi rivojlangan, kommunal xo'jaligi, turar joy fondi, ijtimoiy-madaniy tashqilotlari, savdo-sotiq va umumiy ovkatlanish, aholiga noishlab chiqarish turidagi maishiyxizmat ko'rsatish korxonalar mavjud bo'lgan hamda aholisi 7 mingdan kam bo'lmagan shahar va shaharchalar kiradi. Mazkur shaharda aholining 2G'3 qismi va undan ko'progi ishchi-xizmatchilardan iborat bo'lishi asosiy shart xisoblanadi. Eng asosiysi esa bunday shaharlarning ma'muriy-

tashqiliy ahamiyati va iqtisodiy- ijtimoiy rivojlanish istiqboli xisobga olingan bo'lishi darkor.

O'zbekistonda, xususan Farg'ona mintaqasida dastlabki shaharlar eramizdan oldingi 2-asrda paydo bo'la boshlagan. Tarixiy manbalarga qaraganda Parfiya (Davon) mamlakatida 70 dan ortiqshaharlar bo'lgan. Bu shaharlar o'z davrida iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan rivojlangan va mana shu davlatning qudratli markaziga aylangan. O'sha davrda paydo bo'lganshaharlar farg'ona mintaqasining eng yirik shaharlari xisoblangan. Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, Asaka, Marhamat, Quva, Kosonsoy, Chust, Pop shaharlari tashqi xujumlar ta'sirida bir necha marotaba vayronaga aylansada, ular yana o'z o'rnida tiklanib, rivojlanib boravergan.

Ayrim shaharlar vaqto'tishi natijasida zilzila, suv toshqinlari kabi tabiiy ofatlar yoki urushlar ta'sirida vayronaga aylangan. Bugungi kunda ularni xaritalardan deyarli topa olmaysiz. Bunday shaharlar qatoriga Eylaton, Dalvarzintepa, Axsikentni kiritish mumkin. Boburshoxning otasi Umarshayx Mirzo davrida gullab yashnagan Axsikent shaxri Farg'ona mamlakatining poytaxti bo'lgan. Sirdaryo kirgoqlarini yuvib, okizib ketishi natijasida bu shahar xarobaga aylangan. Kadimiy Ershi, Kubbo, Pop, Chust kabi shaharlar turli sabablarga ko'ra (birinchi o'rinda mezogeografik o'rni noqo'lay bo'lgani uchun) rivojlanishi to'xtab qolgan.

Ma'lumki, shaharlar landshafti, arxitekturasi, genezisi, bajarayotgan funksiyasiga ko'ra o'ziga xos xususiyatlarga ega. Farg'ona mintaqasi shaharlari bugungi kunda yirik sanoat, transport, savdo- sotiq, ilm-fan, madaniyat, rekreatsiya markazlari xisoblanadi.

Ilmiy tadqiqotlarda shaharlar taraqqiyotini o'rganish muhim o'rin to'tadi. Negaki, iqtisodiy va ijtimoiy masalalar shaharlar bilan bevosita bog'langan. Shaharlar taraqqiyoti bozor iqtisodiyoti sharoitida muhim o'rin egallaydi. Bugungi kunda shaharlar bank, moliya tizimining markazlari bo'lib, arxitekturasi tanib bulmas darajada o'zgarib bormoqda.

IKKINCHI BOB.FARG’ONA MINTAQASIURBANISTIK TARAQQIYOTI

II.1 Farg’ona mintaqasi aholi dinamikasi va unga ta’sir etuvchi omillar

Farg’ona mintaqasi respublikamizning sharqiy qismida, asosan Norin, Qoradaryo va Sirdaryo xavzasida, Qurama, Farg’ona, Turkiston va Oloy tog’ tizmalari oralig’ida joylashgan. Farbdan tor “Farg’ona” yoki “Xo’jand” darvozasi (kengligi 8-9 km ga teng) orqali Toshkent-Mirzacho’l okrugiga tutashadi.

Ma’muriy jixatdan uni shimol, sharq va janubdan Qirg’iziston Respublikasining Jalolobod, Osh va Batken viloyatlari, janubiy-g’arbdan Tojikiston Respublikasi So’g’d viloyati, g’arbdan Toshkent viloyati chegaralab turadi.

Ma’muriy-hududiy jixatdan Farg’ona mintaqasiga Andijon, Namangan va Farg’ona viloyatlari kiradi (1-jadval).

1-jadval

Farg’ona mintaqasi maydoni, aholisi va ma’muriy-hududiy to’zilishi

(01.01.2015 yil holati bo’yicha)

	Maydoni, (ming km ²)	Aholi soni (ming kishi)	1 km ² ga to’g’ri keladigan aholi soni	Ma’muriy hududiy to’zilishi			
				tamanlar	Shaharlar	shaharchalar	QFY lar
Andijon	4,30	2857,3	664,5	14	11	78	94
Namangan	7,44	2554,2	343,3	11	8	120	99
Farg’ona	6,76	3444,9	509,6	15	9	197	161
Mintaqa bo’yicha	18,5	8856,4	478,7	40	28	395	354

Manba: O’zbekistan Respublikasi yillik statistik to’plami. - Toshkent, 2015. - B. 26-27.

Farg’ona mintaqasi maydoni 18,5 ming km² ga teng bo’lib, unga respublika hududining atigi 4,1 foizi to’g’ri keladi. Mintaqada maydoni jixatidan Namangan viloyati (7,44 ming kv. km.) salmoqli, Farg’ona viloyati o’rta (6,76 ming kv.km.) va Andijon viloyati quyi (4,30 ming kv.km.) o’rinlarni egallaydi.

Ma'muriy - hududiy bulinishiga ko'ra mintaqaviy viloyatlarida jami 40 ta tuman, 28 ta shahar va 395 ta shaharchalar ajratiladi. 2015 yil 1 yanvar ma'lumotiga ko'ra, Farg'ona mintaqasida 8856,4 ming aholi yashaydi. Shundan 5084,7 ming kishi yoki 57,4 foizi shahar aholisiga va 3771,7 ming kishi yoki 42,6 foizi qishloq aholisiga to'g'ri keladi.

Farg'ona mintaqasi O'zbekiston shaharlari tarmog'iga nisbatan rivojlangan mintaqalardan biri hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, mintaqaviy shaharlarida 5084,7 ming kishi yashaydi (01.01.2015 yil). Mintaqaviy respublika jami shahar aholisining salkam 32,3 foizi to'g'ri keladi.

Farg'ona mintaqasida aholi ko'p va zich joylashgan. Bugungi kunda kichik hudud bo'lishiga qaramay mintaqaviy respublika aholisining 28,5 foizi istiqomat qiladi. Mintaqaviy viloyatlari aholisi soniga ko'ra mamlakat mintaqalari orasida etakchi o'rinlarni egallaydi. Masalan, Farg'ona viloyati (aholisi-3444,9 ming kishi) Samarqand viloyatidan (aholisi-3514,8 ming kishi) keyingi ikkinchi, Andijon viloyati (aholisi-2857,3 ming kishi) to'rtinchi, Namangan viloyati (aholisi 2554,2 ming kishi) oltinchi o'rinni egallaydi. Mintaqaviy aholi soni tez sur'atlar bilan o'sib bormokda. Uning asosini tabiiy o'sish tashkil etadi.

Mintaqaviy yer maydonining nisbatan kichikligi, va ayni paytda, tabiiy sharoitining kulayligi aholi soni va uning zichligi ortishiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan. Mintaqaviy aholi zichligi 1 km² ga 478 kishidan ortib ketdi.

Qadimdan mintaqaviy aholisi asosan soy va daryo mintaqalarida, tog' oldi hududlarida joylashgan, ularni o'zlashtirib, sug'orma dehqonchilik maksadlarida foydalangan, xunarmandchilik, chorvachilik ham yuksak darajada taraqqiy etgan.

Farg'ona mintaqasi aholisi dinamikasiga xarbiy urushlar, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillar kuchli ta'sir ko'rsatgan. XX asr o'rtalarigacha aholi soni sekin ko'paygan. Undan keyingi davrda aholi soni o'sishi tezlashdi. Bu jarayon XX asr so'nggi un yilligigacha davom etib keldi. Hozirgi kunda esa bu jarayon sezilarli darajada pasaydi va barkarorlashib bormovda (2-jadval).

Mintaqa aholisi dinamikasida respublikada bo'lgani kabi umumiy xususiyatlar mavjud. Shu bilan birga mintaqa aholisi sonining o'zgarishiga faqat o'zigagina xos bo'lgan omillar va shart-sharoitlar ham ta'sir ko'rsatgan.

2-jadval

**O'zbekiston Respublikasi va Farg'ona mintakasi viloyatlarida aholi sonining o'sishi
(ming kishi hisobida)**

	1926	1939	1959	1970	1979	1990	2000	2012	2013	2014	2015
O'zbekiston Respublikasi	4621,0	6551,0	8395,0	11799,0	15787,0	20322,0	24966,8	29555,4	29993,5	30492,8	31022,5
Fargona mintakasi	1500,1	1953,0	2301,0	3238,0	4143,0	5579,0	7016,4	8415,6	8544,8	8696,1	8856,4
Andijon	502,5	652,6	768,0	1059,0	1349,0	1795,0	2333,0	2714,2	2756,4	2805,5	2857,3
Namangan	397,8	521,4	594,0	847,0	1100,0	1558,0	1969,6	2420,6	2458,7	2504,1	2554,2
Farg'ona	599,8	779,0	939,0	1332,0	1694,0	222,6,0	2712,9	3280,8	3329,7	3386,5	3444,9

Jadval O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan

Farg'ona mintaqasi viloyatlari aholisi soni 1926 yil 1501,1 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 1939 yilda 1953,0 ming kishi, 1959 yilda 2301,0 ming kishi, 1980 yillarda 4143,0 ming kishi, 2000 yillarda esa 7016,4 ming kishidan ortib ketdi. 2015 yilga kelib aholi soni 8846,4 ming kishiga teng bo'ldi. Tadqiq etilayotgan salkam bir asr ichida mintaqa aholisi soni karyib 5,9 marta yoki so'nggi yarim asr oralig'ida 3,8 martadan ko'proq o'sishga erishdi.

Farg'ona mintakasi viloyatlarida 1926 yil 1500,1 ming aholi yashagan. Shundan 502,5 ming kishi yoki 33,5 foiz aholi Andijon viloyatiga, 397,8 ming kishi yoki 26,5 foiz aholi Namangan viloyatiga va 599,8 ming kishi yoki 40,0 foiz aholi Farg'ona viloyatiga to'g'ri kelgan (hozirda ushbu nisbat mos ravishda 32,2 foiz, 28,6 foiz va 39,1 foizga teng).

Dastlabki aholi ruyxati o'tkazilgan davr ichida (1926-1936 yillar) mintaqa aholisi umumiy soni 452,9 ming kishiga ortgan. Aholining yillik o'rtacha o'sish sur'ati 2,4 foizga teng bo'lgan.

Keyingi 1939-1959 yillarda aholi soni oldingi davrga nisbatan ozroq, ya'ni 227,9 ming kishiga ko'paygan. Aholining o'rtacha yillik o'sish sur'ati 1,2 foizga tushib qolgan. Bunga ikkinchi jaxon urushi va undan keyingi iqtisodiy qiyinchiliklar juda katta ta'sir ko'rsatgan.

Aholi soni 1959-70 yillarda tezlik bilan o'sa boshladi. Natijada 1970 yil aholi soni 3238,0 ming kishiga etdi. Bu 1959 yilga nisbatan 40,7 foizga ko'p, demakdir. Shu sababli, ko'zatilayotgan davrlar ichida 1939-59 yillar alohida ajralib turadi. 1979 yili hudud aholisi 4143,0 ming kishiga etdi. Aholining o'rtacha yillik o'sish sur'atlari 4,0 foizdan yuqori bo'ldi. Bunga sobiq ittifoq miqyosida tug'ilishni rag'batlantirishga qaratilgan demografik siyosat ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Aholi sonining tez o'sish sur'atlari 1979-89 yillarda ham saqlanib qoldi. Lekin, viloyatlar o'rtasida tavofutlar yuzaga kela boshladi. Eng yuqori o'sish sur'ati Namangan viloyatida 3,78 foizga teng bo'lsa, bu ko'rsatkich Farg'ona viloyatida eng past bo'lib, 2,85 foizni tashkil etdi. Aholi o'sish sur'atlaridagi tafovutlar 1990-2000 yillarda yanada yaqqolroq ko'zga tashlana boshladi. Namangan viloyati aholisi 4,25 foizga ko'paygani xolda, Farg'ona viloyati aholisi atigi 2,0 foizga o'sdi. Aholi dinamikasidagi bunday farqlar birinchi navbatda aholining milliy tarkibi, tashqi migratsiya va urbanizatsiya bilan chambarchas bog'liq. Negaki, Farg'ona viloyatida rus va rusiyzabon aholi qo'shni viloyatlarga nisbatan ko'proq istiqomat kiladi, urbanizatsiya darajasi ham yuqori. Ular orasida tashki migratsiyaning o'rni juda sezilarli darajada bo'ldi. Viloyatga XX asr o'rtalarida ko'chirib olib kelingan qrim tatarlari, mesxeti turklari va boshqa xalqlar sobiq ittifoq parchalangach o'z yurtlariga ko'chib ketishdi. Natijada viloyat aholisi soni Namangan va Andijon viloyatlariga nisbatan kamroq ko'paydi.

Mintaqa aholisi 2000-2014 yillar mobaynida 7016,4 ming kishidan 8856,4 ming kishiga etdi yoki 1840,0 ming kishiga ko'paydi. Aholi soni miqdor jixatdan ko'paygan bo'lsada, o'sish sur'ati 2,6 foizga teng bo'ldi. Bundan ko'rinadiki, demografik jarayonlar faollashib, tabiiy o'sish sur'atlari yuqorilashib bormoqda. Yaqin kelajakda ham bunday jarayon saqlanib qoladi.

Mintaqada aholi soni XX asr 90-yillarigacha tez sur'atlar bilan o'sdi. Bunda tug'ilish va tabiiy o'sish sur'atining yuqoriligini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Bozor iqtisodiyoti aholi soni, uning dinamikasi, joylashuvi hamda tarkibiga katta ta'sir ko'rsatdi. Aholining tabiiy o'sish sur'atlari pasayib, aholi soni dinamikasi bir muncha barqarorlashdi.

Farg'ona mintaqasi viloyatlari aholisi dinamikasidagi tafovutlar uning mamlakat miqyosidagi salmog'i o'zgarib turishiga sabab bo'ldi. Agar uning respublika bo'yicha ulushi 1926 yilda 32,5 foizga teng bo'lsa, 1959 yillarda 32,6 foiz, 1959 yili 28,6 foiz, 2000 yilga kelib 28,1 foiz, 2015 yilda esa 28,5 foizni tashkil etdi. Aholi dinamikasi tahlili shuni ko'rsatadiki, respublika va Farg'ona mintaqasi aholisi o'rtasida umumiy xususiyatlar bilan birga bir qator tafovutlar ham mavjudligini ko'rsatadi.

Farg'ona mintaqasi aholisi asosan tabiiy o'sish asosida ko'paygan. 1970-80 yillargacha bo'lgan davrda tabiiy ko'payish darajasi bo'yicha mintaqaviy viloyatlari respublikada nisbatan yuqori o'rinlarda turgan. Undan keyingi davrda aholi soni va zichligi benixoyat darajada ortib ketganligi uchun Mirzacho'l, Markaziy Farg'ona, Qarshi cho'llari va boshqa hududlarga mexnat resurslarini ko'chirish zaruratga aylandi. Shu sababli mintaqaviy aholisining soni va tarkibida katta o'zgarishlar bo'lib o'tdi. Bu jarayon tug'ilish va tabiiy o'sish ko'rsatkichlariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Qo'riq yerlarni o'zlashtirishga mexnatga qobiliyatli aholining ko'chirilishi uning demografik tarkibi va u orqali demografik jarayonlarning o'zgarishiga, ya'ni tug'ilish va tabiiy o'sishning kamayishiga, o'limning nisbatan ko'payishiga olib keldi. Respublikada kuzatilganidek, Farg'ona mintaqasi viloyatlarida aholining tabiiy o'sish sur'atlari yuqori bo'lgan davrlar ham aynan 1970-1980 yillarga to'g'ri keladi. 1970 yildan tabiiy o'sish 30 promillega yaqin bo'lib respublika ko'rsatkichidan yuqori bo'lsa, 1980 yillarda respublika ko'rsatkichidan bir oz past bo'ldi.

Tug'ilish aholi tabiiy o'sishining asosiy manbaidir. Mamlakatda 2014 yil tug'ilish koeffitsienti 23,3 promillega teng bo'ldi. Farg'ona mintaqasida esa unga nisbatan yuqori bo'ldi. Andijon viloyatida aholi o'rtasida tug'ilish koeffitsienti

nisbatan yuqori, xususan, 2014 yilda 24,0 promilleni tashkil etdi. Namangan viloyatida ham tug'ilish koeffitsienti bir oz yuqori (24,6 promille), Farg'ona viloyatida esa aksincha, past (22,5 promille) ekanligi xosdir. Umuman, Farg'ona mintaqasida tug'ilish koeffitsienti shahar va tumanlarda deyarli bir xil bo'lib, katta tafovutlar ko'zga tashlanmaydi (3-jadval).

3-jadval

O'zbekiston Respublikasida tug'ilish koeffitsienti (ming kishiga nisbatan, promille hisobida)

	2000	2005	2010	2011	2012	2013	2014
O'zbekiston Respublikasi	21,3	20,3	22,0	21,2	21,0	22,5	23,3
Qorakalpogiston Respublikasi	24,0	20,6	22,7	21,2	22,4	22,7	23,4
<i>Farg'ona mintaqasi</i>							
Andijon	19,9	20,1	22,6	21,0	21,3	23,1	24,0
Namangan	21,0	20,2	21,5	21,8	20,7	22,9	24,6
Farg'ona	19,7	19,7	22,1	20,8	20,3	21,9	22,5
<i>viloyatlar</i>							
Buxoro	20,0	19,8	20,7	19,4	19,9	21,1	21,6
Jizzax	24,3	22,9	22,4	21,4	21,2	22,6	24,2
Qashkadaryo	26,3	22,2	23,7	23,3	23,3	25,1	25,8
Navoiy	19,7	19,9	21,2	20,6	20,4	21,6	22,2
Samarqand	22,7	21,8	23,2	22,4	22,1	24,1	25,2
Surxondaryo	25,5	21,9	23,7	24,6	23,4	24,7	26,0
Sirdaryo	22,0	21,2	22,5	21,2	21,1	22,1	22,6
Toshkent	18,5	18,7	20,8	20,1	19,7	20,3	21,1
Xorazm	24,0	21,7	22,7	21,7	21,2	22,7	23,7
Toshkent sh	14,5	15,6	17,2	16,5	16,4	17,7	17,9

Jadval O'zbekiston Respublikasi davlat statistika kumitasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan

Mintaqa viloyatlari bo'yicha 2010 yillardan boshlab Namangan viloyatida tug'ilish koeffitsienti Andijon, Farg'ona viloyatlari va o'z navbatida respublika o'rtacha ko'rsatkichiga nisbatan yuqori bo'lib kelmoqda. Shuning uchun so'nggi yillarda mintaqa bo'yicha Namangan viloyatida tug'ilish koeffitsiyenti qo'shni ikki viloyatga nisbatan yuqoriligicha saqlanib kelmoqda.

Tug'ilish dinamikasining tahlili, Farg'ona mintaqasida unga xos darajaning asta-sekin o'sib borayotganidan dalolat beradi. Bu jarayonni aholi va mexnat resurslari soni va tarkibini bashorat qilishda, mintaqa iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanish istiqbollari ishlab chiqishda xisobga olish muhim xisoblanadi.

Ma'lumotlarga ko'ra, mintaqada tug'ilishning eng yuqori koeffitsiyenti 1970 yil Namangan viloyatida (38,4 promille), o'lim koeffitsienti esa Farg'ona viloyatida (12,8 promille) ko'zatildi. Aholi tabiiy o'sishining eng yuqori koeffitsiyentlari 1970 yil Namangan viloyatida 32,8 promillega teng bo'ldi. Farg'ona va Andijon viloyatlarida esa bu ko'rsatkich 1965 yil qayd etildi (31,0 va 30,1 promille).

O'zbekistonda tug'ilgan bolalar soni 2005-2014 yillarda ko'payib bordi. 2000-2010 yillarda tug'ilganlar soni 500 ming atrofida tebrangan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2010-2013 yillarda 600 mingdan ortib ketdi. Birgina 2014 yilda 718,0 ming bola dunyoga keldi. Ularning 209,9 mingti yoki 29,2 foizi Farg'ona mintaqasiga to'g'ri keladi. Shu o'rinda 2005 yilda bu mikdor 27,5 foizi teng bo'lganligini ta'kidlab o'tish o'rinli. Mintaqa bo'yicha 2014 yilda tug'ilgan bolalar soni 2005 yilga nisbatan 63,4 mingtadan ko'proqni tashkil etdi. Mintaqada eng ko'p tug'ilganlar soni Farg'ona viloyatida (76,7 ming kishi) kuzatilib, uning respublika miqyosida xissasi 10,7 foizga teng bo'ldi.

Demografik ko'rsatkichlarda **o'lim koeffitsienti** ham muxim o'rin tutadi. Negaki, u tug'ilish koeffitsienti bilan birgalikda aholining tabiiy o'sish ko'rsatkichlarini aniqlab beradi. Shunday qilib, respublikada aholi turmush tarzining yuksalib borishi, farovonligi ortishi xisobiga o'lim koeffitsienti yildan yilga pasayib borishi ko'zatilmokda. 2000-2014 yil ko'rsatkichlari shuni aks ettiradiki, o'lim koeffitsienti 2005 yillargacha 5,0 promilledan yuqori bo'lib kelgan

bo'lsa (masalan, 2000 yilda eng yuqori 5,5 promilleni tashkil etgan), undan keyingi davrdan boshlab pasayishi ko'zatildi. 2014 yilda o'lim koeffitsienta bir oz o'sdi va 5,3 promilleni tashkil etdi (4-jadval).

4-jadval

O'zbekiston Respublikasida o'lim koeffitsienti (ming kishiga nisbatan, promille xisobida)

	2000	2005	2010	2011	2012	2013	2014
O'zbekiston Respublikasi	5,5	5,4	4,8	4,9	4,9	4,8	5,3
Qorakalpogiston Respublikasi	5,6	5,8	5,0	4,9	4,8	4,7	5,1
Farg'ona mintaqasi							
Andijon	5,2	5,2	4,9	5,2	5,2	5,1	5,5
Namangan	5,0	4,9	4,5	4,7	4,7	4,6	5,0
Farg'ona viloyatlar	5,3	5,2	5,0	5,1	5,1	5,0	5,4
Buxoro	4,7	4,5	4,4	4,4	4,4	4,4	4,6
Jizzax	4,4	4,2	3,8	3,9	4,0	4,0	4,6
Qashqadare	4,4	4,1	3,8	4,0	3,9	3,9	4,4
Navoiy	5,3	5,3	4,6	4,7	4,7	4,6	5,0
Samarqand	5,3	5,0	4,4	4,4	4,5	4,5	4,9
Surxondaryo	4,6	4,3	3,9	4,1	4,2	4,2	4,5
Sirdaryo	5,4	5,5	4,8	4,7	4,9	4,8	5,2
Toshkent	6,4	6,8	5,8	5,8	6,0	5,8	6,5
Xorazm	5,2	4,6	4,4	4,4	4,7	4,4	5,0
Toshkent sh	8,5	8,6	7,1	7,2	7,0	6,9	7,4

Jadval O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan

O'zbekiston Respublikasida 2014 yilda 149,8 ming kishi vafot etgan. Ularning 43,6 mingi yoki 29,1 foizini Farg'ona mintaqasi aholisi tashkil etgan. O'lim soni va uning koeffitsienti mintaqaviy viloyatlari bo'yicha Andijon viloyatida eng yuqori xolatda saqlanib qolmoqda. Xususan, 2014 yilda mazkur viloyatda

o'lim koeffitsienta 5,5 promilleni tashkil etgan. Namangan viloyatida esa aksincha past ko'rsatkich (5,0 promille) qayd etilgan.

Tug'ilish va tabiiy o'sishning yuqoriligi, avvalo aholi o'rtasida o'zbeklar va boshqa tub millat vakillari ko'pchilikni tashkil etshni bilan bog'langan. Bu esa o'z navbatida ana shu millatlarga xos bo'lgan mentalitet - serfarzandlilik, bolajonlik, ayollarning industrial ishlab chiqarishda nisbatan kamroq ishtiroq etishi bilan izoxlanadi. Mintaqada nikoh darajasining yuqoriligi, oilada ajralishlar sonining nisbatan kamligi ham ma'lum jixatdan tug'ilishga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Aholi dinamikasida aholining tabiiy o'sishi ham muxim o'rin tutadi. Aholi tabiiy o'sishi jixatidan Farg'ona mintaqasi aholisi respublika viloyatlari bo'yicha o'rtacha o'rinlarni egallaydi. Shu o'rinda qayd etish lozimki, aholi tabiiy o'sishi 1960-70 yillarda o'zining eng yuqori ko'rsatkichlariga erishgan (28,8-32,8 promille). 1980-90 yillarda ham yuqori darajada saqlanib qoldi. Keyingi davrlarda (1990-2010) esa bu jarayon ancha pasaydi va u yiliga 14-15 promilleni tashkil etadi. Lekin, 2010 yillardan boshlab aholining tabiiy o'sishi bir oz ko'paydi.

Viloyatlar miqyosida aholining tabiiy o'sishi Namangan viloyatida bir oz yuqoriroq. Farg'ona viloyatida esa aksincha. Buning asosiy sababi qo'shni viloyatlarga nisbatan Namangan viloyatida industrial tarmoqdarning yaxshi taraqqiy etmaganligi va shaharlar aholisi milliy tarkibida maxalliy xalqlarning hissasi yuqori ekanligidir,

O'zbekiston Respublikasida aholining tabiiy o'sish koeffitsienti 18,4 promilleni tashkil etdi (2015). So'nggi yillarda mamlakatda tabiiy o'sish sur'atlari ortib bormoqda. Bu soxada respublikamiz olimlari tomonidan ishlab chikilgan ilmiy prognoz o'z isbotini topmokda, deb bemalol baholash mumkin. Ushbu prognozga ko'ra, 2025-2050 yillarga borganda o'zbek xalqi o'z mentalitetiga kaytadi, ya'ni serfarzandlilik, bolajonlik kabi an'analar kayta tiklanadi, oiladagi farzandlar soni ko'payadi, bunga mamlakatimizning tobora yuksalib borayotgan iktisodiyoti ijobiy ta'sir ko'rsatadi, degan ilmiy bashorat o'zining ilmiy asosda ishlab chikilganini ko'rsatdi. Jumladan, 2000 yilda respublika aholisining tabiiy o'sishi 15,8 promilleni tashkil etgan bo'lsa, 2014 yilda bu ko'rsatkich 18,4

promillega teng bo'ldi. Bunday xolat Farg'ona mintaqasi viloyatlari uchun ham xos (5-jadval).

Shunday qilib, Farg'ona mintaqasi respublika miqyosida aholi tabiiy o'sish ko'rsatkichlarining o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Unda aholining tug'ilish va tabiiy o'sish koeffitsientlari boshqa mintaqalarga nisbatan o'rtacha o'rinlarni band etadi.

5-jadval

O'zbekiston Respublikasida tabiiy o'sish koeffitsienti (ming kishiga nisbatan, promille xisobida)

	2000	2005	2010	2011	2012	2013	2014
O'zbekiston Respublikasi	15,8	14,9	17,2	16,3	16,1	17,7	18,4
Qorakalpogiston Respublikasi	18,4	14,8	17,7	16,3	17,6	18,0	18,7
Farg'ona mintaqasi							
Andijon	14,7	14,9	17,7	15,8	16,1	18,0	18,9
Namangan	15,9	15,3	17,0	17,1	16,0	18,3	19,9
Farg'ona viloyatlar	14,4	14,5	17,1	15,7	15,2	16,9	17,4
Buxoro	15,3	15,2	16,3	15,0	15,5	16,7	17,2
Jizzax	19,9	18,7	18,6	17,5	17,2	18,6	20,1
Qashqadare	21,9	18,1	19,9	19,3	19,4	21,2	21,7
Navoiy	^s 14,1	14,6	16,6	15,9	15,7	17,0	17,6
Samarqand	17,4	16,8	18,8	18,0	17,6	19,6	20,8
Surxondaryo	20,9	17,6	19,8	20,5	19,2	20,5	21,8
Sirdaryo	16,6	15,7	17,7	16,5	16,2	17,3	17,8
Toshkent	12,1	11,9	15,0	14,3	13,7	14,5	15,2
Xorazm	18,8	17,1	16,3	17,3	16,5	18,3	19,1
Toshkent sh	6,0	7,0	10,1	9,3	9,4	10,8	11,0

Jadval O'zbekiston Respublikasi davlat statistika kumitasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan

Xususan, janubiy mintaqa (Surxondaryo, Kashkadaryo, Samarqand) viloyatlariga nisbatan past, Toshkent mintaqasi (Toshkent shaxri va viloyati) nisbatan yuqori hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlarda XX asrning 90-yillarigacha aholining tabiiy o'sishi qishloq aholi punktlarida shaharlarga nisbatan ko'proq, degan fikrlar ilgari surilgan. Lekin, so'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, bu fikr o'z kuchini bir oz yo'qotganligini ko'rsatmoqda. Negaki, shahar va qishloq aholi punktlarida tug'ilish koeffitsientlari bir-biriga tenglashdi. Buning asosiy sababi - shahar va qishloq aholi punktlarida ijtimoiy xayotning bir-biriga yaqinlashib borayotgani va mamlakatimizning tobora yuksalib borayotgan iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotidir.

Aholi dinamikasida **shahar va qishloq aholisi dinamikasini** tadqiq etish muxim ahamiyatga ega. Chunki, qishloq va shahar aholisi dinamikasi doimo bir-biridan farq qilib kelgan va buning natijasida umumiy aholi dinamikasiga o'ziga xos ta'sir etib kelgan.

Farg'ona mintaqasida juda kadimdan shaharlar paydo bo'lgan bo'lsada, lekin XX asr o'rtalarigacha urbanizatsiya darajasi past ko'rsatkichlarga ega bo'lgan.

Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi natijasida 1960 yillarda urbanizatsiya darajasi ko'tarildi va aholining 28,2 foizi shaharlarda istiqomat qildi. Ayniqsa, Farg'ona viloyatida bu ko'rsatkich yuqori bo'lib, 36,0 foizga etdi.

Urbanizatsiya darajasi 1959-79 yillarda bir qator aholi punktlariga shahar maqomi berilishi munosabati bilan 31,0 foizga teng bo'ldi. Keyingi 1980-2008 yillarda shahar va qishloq aholisi nisbatida muxim o'zgarishlar kuzatilmadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan 2009 yil 13 martda 68-sonli "O'zbekiston Respublikasi aholi punktlarining ma'muriy-hududiy to'zilishini takomillash-tirishga doyr kushimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qapop kabul qilindi. Uning ta'sirida mamlakat urbanizatsiyasida, xususan shahar va qishloq aholisi taqsimlanishi bo'yicha katta o'zgarishlar bo'lib o'tdi. Shuning uchun respublikada urbanizatsiya darajasi 50 foizdan oshib ketdi.

Bunday xolat Farg'ona mintaqasi viloyatlarida ham kuzatildi. Mintaqa shaharlariga jami aholining 57,4 foizi to'g'ri keladi. Shahar aholisi soni Andijon viloyatida 52,5 foiz, Namangan viloyatida 63,4 foiz va Farg'ona viloyatida 57,0 foizni tashkil etdi (01.01.2015 yil).

Shahar aholisi dinamikasi tahlili shuni ko'rsatadiki, 1926- 1959 yillarda mintaqa shahar aholisi soni karayb 3 martaga o'sgan. Bunday o'sish Farg'ona viloyatida yanada ko'proq ekanligi bilan xosdir. 1959-2008 yillar oralig'ida mintaqada shahar aholisi soni 630,0 ming kishidan 2350,4 ming kishiga yoki 3,7 barabarga ko'paydi. 2008-2015 yillar orasida esa 5084,7 ming kishiga yoki 2,2 barobarga o'sishga erishdi (6-jadval).

6-jadval

Farg'ona mintaqasi shahar va qishloq aholisi (2015 yil 1 yanvar xolatiga ko'ra)

	Aholisi soni, ming kishi xisobida	Shahar aholisi	Shahar aholisining ulushi, foiz xisobida	Qishloq aholisi	Qishloq aholisining ulushi, foiz xisobida
O'zbekiston Respublikasi	31022,5	15748,0	50,7	15274,5	49,3
Farg'ona mintaqasi	8856,4	5084,7	57,4	3771,7	42,6
Andijon	2857,3	1500,0	52,5	1357,6	47,5
Namangan	2554,2	1618,8	63,4	935,4	36,6
Farg'ona	3444,9	1965,9	57,0	1479,0	43,0

Jadval O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan

Shahar aholisining o'sish sur'atlari 2008-2015 yillar ichida Farg'ona viloyatida yanada faol kechdi. Natijada bu viloyat shahar aholisi 827,2 ming kishidan 1965,9 ming kishiga yoki 2,4 barobarga o'sishga erisha oldi. Xolbuki, bu davrda shahar aholisining o'sishi Namangan viloyatida 806,3 ming kishidan 1618,8 ming kishiga etdi yoki davr oralig'ida 2,0 marotaba, Andijon viloyatida esa 716,9 ming kishidan 1500,0 ming kishiga yoki 2,1 barobarga teng bo'ldi.

Qishloq aholisi dinamikasi shahar aholisi dinamikasidan bir oz farq qiladi. Chunki, qishloq aholisi shahar aholisiga nisbatan tez ko'paydi. Bunga aholining

milliy tarkibi, milliy urf-odatlar, meditsina xizmatining yuksalishi, ishlab chiqarishning tashkil etilishi jiddiy ta'sir ko'rsatdi.

Agar 1926 yilda mintaqada 1125,6 ming qishloq aholisi bo'lsa, bu ko'rsatkich 2008 yil 5247,8 ming kishiga etdi. Ushbu davr ichida qishloq aholisi soni 4121,7 ming kishiga yoki 4,7 marotabaga ko'paydi. Bunday ko'payish yuqori bo'lsada, lekin shahar aholisi dinamikasi (6,6 marta)ga nisbatan past ekanligi bilan ajralib guradi.

Respublikada qishloq aholi punktlariga shaharcha makomi berilishi munosabati bilan Farg'ona mintaqasida qishloq aholisi soni 2008 yildan keyin bir oz kamaydi. 2009 yilda qishloq aholisi soni 5247,3 ming kishidan 3771,7 ming kishiga tushib qoldi. Jumladan, Andijon viloyatida 1734,3 ming kishidan 1357,3 ming kishiga, Namangan viloyatida 1368,0 ming kishidan 935,4 ming kishiga va Farg'ona viloyatida 2145,0 ming kishidan 1479,0 ming kishiga pasaydi.

So'nggi o'n yilliklarda mintaqa iqtisodiyotida juda katta industrial rivojlanish amalga oshirilayotganligini xisobga olsak, qishloq aholisi dinamikasining pasayib borishi tabiiy xol ekanligi ayon bo'ladi.

Aholi dinamikasida migratsiya ham katta rol uynaydi. Mintaqaga XIX asr ikkinchi yarmidan rus va tatarlar, XX asr 20-30- yillarida koreyslar, 40-yillarida krim-tatarlari, mesxeti turklari va boshqa xalqlar ko'chib keldi. O'z navbatida XX asr ikkinchi yarmida o'lkada Rossiyaning Markaziy Qoratuproq, G'arbiy Sibir, Baykal-Amur magistrali, Primore o'lkalariga, shuningdek, Mirzacho'l va Karshi cho'llarini o'zlashtirish uchun aholi migratsiyalari tashkil etildi.

XX asr so'nggi o'n yilligi boshlarida qrim-tatarlari, mesxeti turklari, bir qator rus va rusiyzabon aholi o'z yurtlariga kaytishi kuchaydi. 1995 yillardan boshlab mintaqa aholisi soniga migratsiyaning ta'siri kamaya boshladi.

II.2 Farg'ona mintaqasi urbanizatsiya jarayoniga hos hususiyatlar

Yuqorida shaharlar aglomeratsiyasi haqida ko'p ma'lumotlar berib o'tildi. Shuning uchun uning mazmun va moxiyatiga to'xtalib o'tsak.

Ilmiy adabiyotlarda shaharlar aglomeratsiyasiga turli ta'riflar berilgan. G.Asanov shaharlar aglomeratsiyasiga quyidagicha ta'rif beradi:

Aglomeratsiya -1.To'planish, jamlanish. Chunonchi, xaddan tashqari ko'p kishilarning bir joyda to'planishi. Agglomeratsiya deganda biz biron narsaning bir joyda g'uj bo'lib to'planishini tushunamiz:

1. Qishloq agglomeratsiyasi quyidagi shakllar bilan farq qiladi: kichikroq posyolkalar, katta va kichik qishloqlar yig'indisi;

2. Yirik yoki bir-biriga yaqin joylashgan bir necha shahar bazasida hududiy va iqtisodiy xosila. Shaharlar agglomeratsiyasi uchun sanoat va boshqa ishlab chiqarish sohalarning yuksak darajada konsentratsiyalanishi va shu munosabat bilan malakali kadrlar va ilmiy hamda o'quv muassasalari ob'ektlarining to'planishi, muxandislik va kommunikatsiya qurilishlarining umumiyliigi, aholining o'ta zichligi va boshqalar xosdir. Agglomeratsiyalar bir necha tipga bulinadi. Bular quyidagilar:

Monotsentrik agglomeratsiya - yirik shahar atrofida yo'ldosh shaharlarning paydo bo'lishi.

Politsentrik agglomeratsiya - ikki va undan ortiq yirik shahar atrofida yo'ldosh shahar va shaharchalarning yigilishi.

Cho'ziq agglomeratsiya - dengiz sohili, daryo qirg'ogi yoki temir yul magistrali buylab uzunasiga joylashgan agglomeratsiya.

Agglomeratsiya aholi joylashishining eng muhim tipik tizimidir, bu tushunchaga quyidagicha ta'rif beriladi:

“Agglomeratsiya” deganda shunday hududiy - iqtisodiy xosila tushuniladiki, bu xosila yirik shahar (yoki zich joylashgan bir necha shaharlar - konurbatsiya) negizida paydo bo'ladi va urbanizatsiyaning kattagina mintaqasini shakllantiradi, yon - atrofidagi aholi punktlarini o'ziga qo'shib oladi. Xilma-xil moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish korxonalarini, birinchi galda sanoat korxonalarini infrastruktura ob'ektlari, ilmiy va o'quv muassasalarining yuksak darajada hududiy konsentratsiyasini vujudga keltiradi. Shuningdek, aholining o'ta zich joylashganligi bilan boshqa hududlardan farq qiladi.

Aglomeratsiyaning ana shu barcha o'ziga xos belgilari uning amaliy ahamiyat kasb etgan ko'p tarmoqli, ko'p funktsiyali aholi tizimi sifatida rivojlanishi va xo'jalikning eng ilg'or tarmoqlariga ixtisoslashishini taqozo etadi.

Shunday qilib, shaharlar aglomeratsiyasi ishlab chiqarishni joylashtirishning umumiy xo'jalik tizimida kenja tizim, va ayni paytda, mamlakatda aholi joylashish umumiy tizimida ham kenja tizimdir, deyishga to'g'ri keladi.

Dastlab aglomeratsiya tushunchasi sanoat joylashuviga nisbatan Germaniya va Frantsiya mamlakatlarida ishlatilgan, ya'ni sanoat korxonalarining bir joyda to'planishini aks ettirgan. **Shaharlar aglomeratsiyasi** deganda markaziy katta shahar atrofida joylashgan uch va undan ortiq shahar tipidagi aholi punktlarining bir-biri bilan o'zaro qo'shilib ketishi va ular o'rtasidagi o'zviy aloqadorlik tushuniladi. Uning asosiy belgilari quyidagilar:

1. Markaziy shahar aholisi 100 ming kishidan ko'p bo'lishi;
2. Markaziy shahar yaqinidagi shahar tipidagi aholi punktlari soni (yo'ldosh shaharlar) uch va undan ortiq hamda ularning barchasida umumiy aglomeratsiya aholisining 10 foizidan ko'prog'i yashashi;
3. Markaziy va yo'ldosh shaharlar orasida "aholi aloqasi", ya'ni tebranma migratsiya rivojlangan bo'lishi;
4. Aglomeratsiya tarkibiga kiradigan yo'ldosh shaharlar ikki soatli masofada joylashishi kerak.

Shahar aglomeratsiyasining mohiyati ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi va bir joyda to'planishi, aholi joylanishi va taqsimlanishi kontrastligining kuchayishi, ko'pgina faoliyat turlarining rivojlanishi uchun juda qulay bo'lgan areallarda yig'ilish jarayonini aks ettiradi. Alohida shahar bu jarayonlarning miqyoslari va intensivligiga javob bera olmaydi. Binobarin, shahar aglomeratsiyasi barqaror mehnat, madaniy, maishiy va ishlab chiqarish aloqalari, yagona ijtimoiy va texnik infrastruktura bilan birlashgan, hududiy jihatidan bir-biriga yaqin va iqtisodiy jihatdan o'zaro bog'langan aholi yashash punktlarining kenja tizimidir. U aholi joylashishi va taqsimlanishining butunlay yangi shaklidir. Ularga faol rivojlangan yadrolarni o'z ichiga oladigan, keng shahar to'plamlarining bir-biriga

qo'shilib ketishi, yangi-yangi hududlarni o'z doirasiga qamrab olishi, aholining ko'plab to'planishi, shahar atrofi xo'jaligining rivojlanishi va shahar markazlari bilan shahar atrofi mintaqalari o'rtasida aholining agrosektorga aloqasi bo'lmagan mexnatga jalb etilishi, ayniqsa yaqin joylashgan shahar va shaharchalarda aglomeratsiya doirasida ishga, o'qish, madaniyatga, xizmat ko'rsatishga va ishchi-xizmatchilarning dam olish joylariga aholining keng miqyosda mayatniksimon migratsiya vositasida ishtiroq etishi kabi xususiyatlar xosdir.

Katta shaharlarning rivojlanishi hozirgi davr urbanizatsiyasining muhim sifat ko'rsatkichlaridan biri bo'lgan shaharlar aglomeratsiyasining vujudga kelishi va taraqqiy etishida muhim omildir. Chunki, katta shaharlarda ijtimoiy-iqtisodiy, tashqiliy xo'jalik, ilm-fan va madaniyat taraqqiyoti uchun katta imkoniyatlar to'plangan bo'ladi. Bunday shaharlarda odatda ko'plab moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish korxonalarini va boshqaruv-xizmat doirasi muassasalari joylashgan bo'lib, hozirgi zamon ishlab chiqarishining ob'ektiv ehtiyojlari sifatida yo'ldosh shaharlar va shaharchalarning paydo bo'lishiga imkoniyat tug'iladi.

Respublikada shu tariqa paydo bo'lgan va ifodalangan ikkita shaharlar aglomeratsiyasi - Toshkent va Farg'ona - Marg'ilon aglomeratsiyasi shakllangan. Bulardan tashkari hozirgi paytda Samarqand, Andijon, Buxoro, Navoiy va Nukus shahar aglomeratsiyalari ham shakllanib bormokda.

Bugungi kunda O'zbekiston shahar aglomeratsiyalari orasida eng rivojlangani Toshkent aglomeratsiyasidir. Bu aglomeratsiya to'zilishiga ko'ra monotsentrik tabiatga egadir.

Yirik shahar aglomeratsiyalaridan yana biri Farg'ona - Marg'ilon aglomeratsiyasidir. Toshkent aglomeratsiyasidan politsentrik tabiatga egaligi bilan farq qiladi, unda aniq shakllangan ikkita markaz - Farg'ona va Marg'ilon shaharlari mavjud. Aglomeratsiya aholisining 75 foizidan ko'prog'i mana shu markazda joylashgan. Bu aglomeratsiya haqida yuqorida ma'lumotlar berib o'tildi.

O'zbekistonda aholisi soni 50 ming ortiq shaharlar soni 39 tani tashqil etadi. Ulardan 11 tasi yoki 28,2 foizi Farg'ona mintaqasida joylashgan. Jumladan, Andijon viloyatida 3 ta, Namangan viloyatida 4 ta va Farg'ona viloyatida 4 ta

mana shunday tipdagi shaharlar qayd etilgan. Bunday shaharlar sonining ko'payishi quvonchli xoldir. Ular orasida aholisi salkam 0,5 mln. kishiga yaqinlashib qolayotgan Namangan shahri (484,9 ming kishi), Andijon shahri (410,4 ming kishi) va Farg'ona (268,1 ming kishi) respublikaning yirik shaharlari sifatida alohida ajralib turadi.

Aholisi 50 mingdan ortiq o'rta shaharlar safiga Chortoq, Kosonsoy, Asaka shaharlarining qo'shilishi ham Farg'ona mintaqasida urbanizatsiya jarayonining jadal rivojlanib borayotganidan, shaharlar rolining tobora ortib borayotganidan dalolat beradi (7- jadval).

7-jadval

Farg'ona mintaqasida aholisi soni 50 mingdan ortiq shaharlar

Shaharlar	2000	2006	2011	2012	2013	2014	2015
Asaka	51,8	55,3	61,0	61,7	62,2	63,4	64,4
Andijon	334,3	356,2	388,4	393,5	398,2	403,9	410,4
Qo'qon		211,5	224,7	227,0	230,4	233,5	236,8
Kosonsoy	40,7			50,5	50,9	51,4	51,8
Quvasoy		72,3	80,5	81,7	83,0	84,5	85,9
Marg'ilon		190,9	206,2	209,4	212,2	215,4	218,9
Namangan	386,2	413,3	453,5	461,1	468,0	475,7	484,9
Farg'ona		225,4	250,3	253,7	261,4	264,9	268,1
Chust	60,7	65,1	68,0	68,6	69,2	70,0	70,7
Chortoq	45,9		52,8	53,2	53,4	53,9	54,4
Shahrixon	58,2	62,5	69,4	70,5	71,5	72,7	74,2

Jadval O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan

II.3 Mintaqaning hududiy urbanistik taraqqiyoti

Urbanizatsiya iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning muhim tushunchalaridan biri bo'lib, tadqiqot ob'ekti sifatida uning o'rnini juda yuqoridir.

Aholining shahar va qishloq o'rtasida taqsimlanish darajasi hududlarda sanoat va qishloq xo'jaligining qay darajada taraqqiy etganligiga bog'liqdir.

Urbanizatsiyaning shakllanishi va rivojlanishi jihatidan Farg'ona mintaqasida ham tafovutlar mavjud.

Farg'ona mintaqasida urbanizatsiya jarayoni rivojlangan deb xisoblash mumkin. Negaki, aholisining 57,4 foizi shaharlarda yashaydi. 2015 yil 1 yanvar ma'lumotlariga ko'ra, mintaqada 5084,7 mingga yaqin aholi shaharlarda yashagan. Urbanizatsiya darajasiga ko'ra mintaqaviy viloyatlari respublika ko'rsatkichidan yuqorida turadi. Jumladan, bu ko'rsatkich Namangan viloyatida 63,4 foiz, Farg'ona viloyatida 57,0 foiz va Andijon viloyatida 52,5 foizni tashkil etadi.

Farg'ona mintaqasida urbanizatsiya jarayoni tadqiq, etilayotgan davrda rivojlanib bordi. Agar, 1989 yilda shahar aholisining ulushi 33,7 foizga teng bo'lsa, 2015 yil boshlariga kelib 57,4 foizga etdi.

Mintaqada Namangan, Andijon, Qo'qon, Farg'ona, Marg'ilon kabi shaharlar respublikaning yirik shaharlari xisoblanadi. Bir qator yirik olimlar (O.B.Ata-Mirzaev, A.A.Qayumov, A.S.Soliev) fikriga asoslanib aytish mumkinki, Farg'ona mintaqasi tipik urbanizatsiyalashgan hududdir. Urbanizatsiya jarayoni mintaqaviy viloyatlari bo'yicha birma-bir taxlil qilib o'tilsa, unga xos xususiyatlarni aniqlash mumkin.

O'zbekiston jumladan, Farg'ona mintaqasida sanoatning rivojlanishi tufayli aholining shahar va qishloq o'rtasida taqsimlanishida muhim ijobiy siljishlar yuzaga keldi va shahar aholisining salmog'i ancha tez o'smoqda. Masalan, Andijon viloyatida shahar aholisi 1959 yilda 174 ming kishi yoki jami aholining 22,6 foizini tashkil qilgan. 1979 yilda 387 ming kishi yoki 28,7 foiz, 1989 yilda 559 ming kishi yoki 32,3 foiz, 2000 yili 657,5 ming kishi yoki 30,0 foiz, 2015 yil boshiga ko'ra 1500,0 ming kishi yoki 52,5 foizni tashkil etgan.

Farg'ona mintaqasida urbanizatsiyaning shakllanishi, rivojlanishi jihatidan ayrim tafvutlar mavjud va ularni viloyatlar doirasida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

Andijon viloyatida shahar aholisi soni 1500,0 ming kishini tashkil etadi. Urbanizatsiya darajasi 52,5 foizga teng. Viloyat shahar aholisi soni 1959 - 2015 yillarda 1482,6 ming kishiga ko'paydi. Shahar aholisi yuqori sur'atlar bilan o'sgan ikki davrni alohida ajratib ko'rsatish o'rinli. Birinchi davr 1970-1993 yillarni o'z ichiga oladi, bu davrda shahar aholisi salmog'i 24 foizdan 32,3 foizga ko'tarildi.

Ikkinchi davr 2000-2010 yillarni qamrab oladi, bu davrda u 29 foizdan 53,2 foizga etdi.

Bugungi kunda respublikada urbanizatsiya darajasi 50,7 foizni tashqil etgani holda Andijon viloyatida u 52,5 foizga teng bo'lishi muayyan sabablar bilan tavsiflanadi. Ulardan eng asosiylari industrial rivojlanish, bozor infrastrukturalari tizimining yuksalib borishi, xizmat ko'rsatish (servis xizmati) sohalarining taraqqiy etganligi xisoblanadi. Viloyat shaharlari orasida Andijon shahri (aholisi - 410,4 ming kishi) har tomonlama ajralib turadi. Viloyat jami aholisining 14,4 foizi, viloyat jami shaharlar aholisining 27,4 foizi aynan shu shaharga to'g'ri keladi. Andijon - viloyatning ma'muriy, sanoat, savdo-sotiq, transport, ilm-fan, madaniyat markazi.

Farg'ona mintaqasi viloyatlarida shahar va qishloq aholi soni va uning dinamikasi (ming kishi hisobida)

	1989 yil			2000 yil			2010 yil			2015 yil		
	Barcha aholi	Shahar	Qishloq	Barcha aholi	Shahar	Qishloq	Barcha aholi	Shahar	Qishloq	Barcha aholi	Shahar	Qishloq
O'zbekiston Respublikasi	19780,0	8059,3	11720,7	24487,9	9165,5	15322,2	28001,4	14425,9	13575,5	31022,5	15748,0	15274,5
Farg'ona mintaqasi	5328,4	1793,6	3534,8	677,9	2156,2	4618,7	7882,2	4619,7	3262,6	8856,4	5084,7	3771,7
Andijon viloyati	1719,6	554,5	1165,1	2186,2	657,5	1527,7	2549,1	1358,4	1190,7	2857,3	1500,0	1357,3
Namangan viloyati	1469,1	546,1	923,0	1924,3	722,6	1201,7	2258,5	1458,8	799,8	2554,2	1618,8	935,4
Farg'ona viloyati	2139,7	693,0	1446,7	2664,4	776,1	1888,3	3074,6	1802,5	1272,1	3444,9	1965,9	1479,0

Jadval O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan

O'zbekiston va Markaziy Osiyoning qadimiy va yirik shaharlaridan biri Andijon shahridir. U Farg'ona mintaqasining sharqiy qismida, viloyatning qoq markazida, dengiz satxidan 496 m balandlikda, Qoradaryo xavzasining chap sohilida, intensiv sug'orma dexqonchilik rivojlangan mintaqada joylashgan. Tarix saxifalarida uning paydo bo'lgan vaqti aniq ko'rsatilmagan. Shahar haqidagi dastlabki ma'lumotlar IX asrga oid bo'lib, o'sha davrdagi manbalarda uning nomi "Andukon" deb yuritilgan. Zaxiriddin Muhammad Bobur ta'rificha, o'rta asrlarda Andijon kattaligi va obodligi jihatidan Movarounnaxrda Samarqand va Shahrisabzdan keyin 3-o'rinda turgan. "Boburnoma"da Andijon shahrining go'zalligi, iqlimi, bog'-rog'lari g'oyat katta mexr-muhabbat bilan ta'riflangan.

Andijon shahrining bugungi kundagi geografik o'rni juda qulay. Shahar avtomobil va temir yullarining kesishgan chorraxasidan o'rin olgan. Andijonni temir va avtomobil yo'llari O'zbekistonning turli shaharlari bilan bog'lab turadi.

Andijonning tabiiy iqlim sharoiti ham qulay. Bu omillarning hammasi shaharning ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotida ijobiy rol uynaydi. Ammo shu bilan birga, Andijon hayoti uchun mavjud bo'lgan salbiy omillar ham bor. Aytish mumkinki, Andijon shahri Farg'ona mintaqasi, va umuman, respublikamizdagi shaharlar va boshqa aholi punktlari orasida tez - tez yer qimirlab turishi bilan ajralib turadi, ya'ni u kuchli seysmik mintakada joylashgan.

Qadimdan "Buyuk ipak yuli"ning Andijon shahridan o'tganligi shaharning vujudga kelishi va taraqqiy etishida asosiy omillardan biridir. Bu yo'l xech shubxasiz Sharq va G'arb mamlakatlarini bir-biri bilan bog'lab turar, ular o'rtasidagi savdo - sotiq ishlarini kuchaytirishga sabab bo'lar edi. Bundan tashkari, Andijon shahri paydo bo'lgan joyda o'sha paytlarda anchagina aholi yashab turganligi ham shaharning yuzaga kelishiga katta turtki bo'lgan.

XVI asr oxirlari va XVII asr boshlarida Andijon Farg'ona mintaqasining poytaxti, uning asosiy savdo-sotiq va xunarmandchilik markazi bo'lgan. Ayni chog'da, Andijon shahri o'zining ko'p asrlik tarixi mobaynida Farg'ona mintaqasining sharqiy darvoza vazifasini ham bajarib keldi. Sharqiy darvoza orqali nafaqat Andijon balki, butun Farg'ona vodiysi Xindiston, Xitoy kabi Sharqiy

Osiyo mamlakatlari bilan savdo, iqtisodiy, madaniy aloqalarni amalga oshirib keldi.

O'rta asrlarda Andijon Farg'ona vodiysida yirik savdo va xunarmandchilik markaziga aylandi. O'sha paytlarda Andijon aholisi kumush, mis, temirdan xar xil buyumlar, paxta, jun va shoyidan turli tuman gazlamalar tayyorlash bilan shug'ullanib kelar edi.

Andijon shahri aholisi tezlik bilan o'smoqda, 1959 yilda 131 ming kishi bo'lsa, 1989 yili 293 ming kishi, 2015 yili 410,4 ming kishiga etdi. 1959-2015 yillar o'rtasida shahar aholisi soni 279,4 ming kishiga yoki 3,1 barobarga ko'paydi. Bugungi kunda Andijon shahrida istikomati qiluvchi aholi soniga ko'ra mintaqada faqat Namangan shahridan keyingi ikkinchi o'rinni egallaydi.

Andijon viloyatining eng katta va istiqbolli shaharlaridan biri Asaka shahri xisoblanadi. Bu shahar 1938 yilda Andijon - Farg'ona temir va avtomobil yuli bo'yidagi yirik Asaka qishlog'i o'rnida tashkil topgan. O'zbekiston avtomobil sanoati poytaxtiga aylangan ushbu shahar aholisi 64,4 mingdan kishidan ortib ketdi.

Aholisining soniga ko'ra Shahrixon shahri viloyatning ikkinchi shahriga aylangan. Hozirgi vaqtda Shahrixon shahrida 74,2 mingdan ortiq kishi yashaydi. Ushbu shahar aholisi tumandagi jami aholining 27,4 foizini, viloyat shaharlari aholisining esa 5 foizini tashqil etadi.

Andijon viloyati tumanlari bo'yicha urbanizatsiya darajasi jihatidan Marhamat tumani alohida ajralib turadi. Mazkur tumanda aholining 79,6 foizi shaharlarda yashaydi. Mazkur tumanda yirik sanoat korxonalarining barpo etilishi boshqa tumanlarga nisbatan shaharlar tarmog'ining rivojlanishiga olib keldi.

Shuningdek, Andijon (75,3 foiz), Oltinko'l (53,6 foiz) tumanlarida urbanizatsiya darajasi viloyatning bo'ha tumanlariga nisbatan yuqori (01.01.2015). Hozirgi kunda jami aholiga nisbatan shaharlar aholisi xissasi, urbanizatsiya darajasi eng past hudud Ulug'nor tumani xisoblanadi. Tumanda shahar aholisining ulushi bor-yug'i 10,3 foizni tashqil etadi, xolos.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2009 yil 13 martdagi 68-soshga "O'zbekiston Respublikasi aholi punktlarining ma'muriy-hududiy to'zilishini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qaroriga ko'ra, respublikada 965 ta aholi punktlariga shaharcha maqomi berilgan. Jumladan, Farg'ona viloyatida 196 ta, Namangan viloyatida 109 ta va Andijon viloyatida 78 ta aholi punktlariga shaharcha makomi berildi. Bu esa respublikada urbanizatsiya darajasining ortishiga olib keldi. Aholi punktlari tarkibida o'zgarishlar bo'lib o'tdi.

Farg'ona mintaqasida ayrim tumanlar yangi shaharchalar sonini keskin oshirib oldi. Ular qatoriga Andijon viloyatining Andijon tumani 18 ta, Oltinko'l tumani 11 ta, Namangan viloyatining Yangiqo'rg'on tumani 18 ta, To'raqo'rg'on tumani 12 ta, Farg'ona viloyatining O'zbekiston tumani 21 ta, Bag'dod tumani 20 ta, Quva tumani 15 ta, Oxunboboev tumani 14 ta aholi punktlariga shaharcha makomi olishga erishdi.

O'z navbatida Andijon viloyati Ulug'nor va Ko'rg'ontepa tumanlarida atigi 1 ta aholi punktiga shaharcha maqomi berilganligini ham ta'kidlab o'tish lozim.

Andijon viloyatida 2009 yilda yangi tashqil etilgan shaharlar ("agrosaharlar") qishloq tumanlarining umumiy urbanizatsiya jarayonini tubdan o'zgartirib yubordi. Masalan, Oltinko'l, Ulug'nor, Baliqchi tumanlarida shahar aholisi butunlay shu yildan boshlab shakllandi. Andijon, Buloqbo'shi, Marhamat tumanlari shahar aholisining asosiy qismi ham aynan yangi shaharchalar xissasiga to'g'ri keladi. Faqat Shahrixon, Qo'rg'ontepa, Asaka hamda Bo'z tumanlarida bunday urbanistik to'lqin kuzatilmadi.

Shu yili respublika bo'yicha jami 965 ta aholi punktlari shahar va shaharcha maqomiga ega bo'ldi. Shundan 78 tasi Andijon viloyatiga to'g'ri keladi. Ushbu xolat viloyat tumanlarida quyidagi ko'rinishga ega:

Andijon tumani – Bo'taqora, Guliston, Gumbaz, Zavrok, Qorakalpoq, Kuyganyor, Ko'nji, Qo'sharik, Namuna, Og'ullik, Okyor, Rovvot, Xartum, Chilon, Cho'mbogich, Ekin-Tikin, Yangiobod, Ayrilish.

Oltinko'1 tumani - Dalvarzin, Jalabek, Ko'makay, Qo'shtepa, Madaniy Mexnat, Markaz, Maslaxat, Namuna, Xondibog'i, Ijtimoiyat, Bo'ston.

Marhamat tumani - Rovot, O'qchi, Xakka, Boboxuroson, Qorabog'ish, Qoraqo'rg'on, Ko'tarma, Marhamat, Xo'jaariq.

Jalakuduk tumani - Beshtol, Yorqishloq, Jalaquduq, Ko'kalam, Qo'shtepa, Oyim.

Xujaobod tumani - Guliston, Dilkushod, Xo'jaobod, Ko'tarma, Manak, Xidirsha.

Asaka tumani - Kujgan, Navkan, Oqbuyra, Fayz (sobiq T. Aliev).

Balikchi tumani - Balikchi, Xo'jaobod, Chinobod, Chinobod markaz.

Buloqbo'shi tumani - Andijon, Uchtepa, Buloqbo'shi, Shirmonbuloq.

Paxtaobod tumani - Nodirabegim, Do'stlik, Izboskan, Pushmon.

Izboskan tumani - Gurkirov, Maygir, To'rtko'l, O'zunkucha (Chuvama).

Shahrixon tumani - Vaxim, Cho'ja, Segazakum.

Bo'ztumani - Xoldovonbek, M.Jalolov.

Kypg'ontepatumani - Sultonobod.

Ulug'nor tumani - Oq oltin,

Xonobod shahri- Fozilmon.

Viloyat bo'yicha jami 78 ta shaharchadai 18 tasi birgina Andijon tumanida joylashgan. Oltinko'lda ularning soni 11 ta, qolgan tumanlarda esa ozrok, Ulug'nor hamda Qo'rg'ontepa tumanlarida esa atigi bittadan (tegishli ravishda Oqoltin va Sultonobod) aholi punktlariga shaharcha nomi berildi. Bunday shaharchalar yaqindagina qishloq tipida qayd etilar edi.

Umuman olganda, respublikada 20 ming va undan ortiq aholisi bor avvalgi qishloqlar hozirgi **“agroshaharchalar”**ga aylangan. Andijon viloyati esa bunday aholi punktlarining ko'pligi bilan ajralib turadi. Ular orasida aholi soni bo'yicha eng avvalo, Buloqbo'shi (32,5 ming kishi), Baliqchi (22,9 ming kishi), Chinobod markaz (22,7 ming kishi), To'rtko'l (19,4 ming kishi), Pushmon (19,2 ming kishi), Marhamat (19,0 ming kishi) shaharchalarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Mazkur aholi punktlari respublika qishloqlari va yangi shaharchalar ruyxatida aholisining soniga ko'ra eng oldinsh o'rirlarni egallaydi (4-ilova).

Andijon viloyatida hozirgi zamon urbanizatsiyaning muhim shakli -Andijon aglomeratsiyasi tarkib topmokda. U deyarli butun viloyatni to'raligicha qamrab olgan. Aglomeratsiya o'zagini Andijon shahri tashkil etadi, uning tarkibiga Asaka, Shahrixon, Poytug shaharlari va Kuyganyor kabi o'nlab shaharchalar kiradi. Aglomeratsiya shimolda Poytug' shahridan boshlanib, janubda Asaka shahrigacha davom etadi. Andijon aglomeratsiyasi monotsentrik aglomeratsiya bo'lib meridional yunalishda 30 km masofaga cho'zilgan. Andijon aglomeratsiyasida bugungi kunda salkam 920 mingdan ortiqaholi istiqomat qiladi.

Namangan viloyatida garchi industrial taraqqiyot qo'shni Andijon va Farg'ona viloyatlariga nisbatan sust bo'lsa-da, lekin viloyatda urbanizatsiya darajasi yuqori. Namangan viloyatida shahar aholisi soni 1618,8 ming kishini tashkil etadi. Viloyatda urbanizatsiya darajasi 63,4 foizga teng va bu Farg'ona mintaqasi uchun eng yuqori ko'rsatkich hisoblanadi.

Shaharlar taraqqiyotida viloyat markazi bo'lgan **Namangan** shahri yaqqol ko'zga tashlanib turadi va aholi soni so'nggi chorak asr ichida juda tez sur'atlar bilan o'sdi. Masalan, 1979 yilda mazkur shaharda 226,6 ming kishi yashagan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2015 yilda 484,9 ming kishidan ortib ketdi. Natijada, Namangan shahri bu davr ichida aholi soniga ko'ra Andijon shahrini ortda qoldirib ketdi va Farg'ona mintaqasida aholisining soniga ko'ra birinchi raqamli shaharga aylandi. Respublika shaharlari orasida faqat Toshkent (2 371,3 ming kishi) va Samarqand (513,6 ming kishi) shaharlaridan keyingi 3-o'rinni egallaydi.

Namangan shahri respublikaning qadimiy shaharlaridan biri hisoblanadi. Shaharga 1610 yilda asos solingan. U mintaqaning shimoliy qismida Shimoliy Farg'ona kanali bilan Namangansoy kesishgan joydan o'rin olgan. Shahar "Nomak kon" deb atalgan tuz koni yaqinida vujudga kelgan. Shuning uchun ham u keyinchalik Namangan deb nom olgan.

Namangan viloyatida shaharlar tizimi yaxshi rivojlangan. Viloyatning Chust (70,7 ming kishi), Chortoq (54,4 ming kishi), Kosonsoy (51,8 ming kishi)

shaharlari aholisi sonining ko'pligi va tez o'sishi bilan Andijon viloyati shaharlaridan farqlanadi.

Chust milliy xunarmandchilik markazi bo'lsa, Chortoq - rekreatsion markaz xisoblanadi. Ushbu shaharlar bu jihatlari bo'yichamintaqada mashxurdir.

Namangan viloyatida ham shaharlar aglomeratsiyasi tarkib topib bormoqda. Namangan aglomeratsiyasi tarkibiga viloyat markazidan tashqari To'raqo'rg'on, Chortoq shaharlari ham kiritiladi. Jami bo'lib 788,8 mingdan ortiq aholi ushbu aglomeratsiya tarkibiga kiritiladi. Namangan aglomeratsiyasi ham Andijon aglomeratsiyasi singari monotsentrik aglomeratsiyalar turkumiga kiritiladi. Lekin Andijon aglomeratsiyasidan kenglik yo'nalishida cho'zilganligi bilan farqlanadi.

Farg'ona- respublikada ishlab chiqarish saloxiyati bo'yicha "yuki og'ir" viloyatlardan biri hisoblanadi. Uning hududi geografik jihatdan yaxlit emas. Shoximardon (Farg'ona tumani) va Sux tumani anklav xolatida Qirgiziston hududida joylashgan. Bunday joylashuv hozirgi kunda muayyan muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Farg'ona viloyati Namangan viloyatiga o'xshab soylar o'lkasidir. Bu soylar viloyatda shaharlarning tarkib topishi, shakllanishi va rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

Farg'ona viloyatida 1965,9 ming kishi shaharlarda yashaydi. Viloyatda urbanizatsiya darajasi 57,0 foizga teng (01.01.2015).

Farg'ona viloyatida katta shaharlar ko'pligi bilan qo'shni Andijon va Namangan viloyatlaridan alohida ajralib turadi. Farg'ona viloyatida jami 9 ta shahar mavjud. Farg'ona viloyatida yirik shaharlar ko'p bo'lib, ulardan uchtasi Farg'ona, Qo'qon va Marg'ilon muhim ahamiyat kasb etadi. Bu shaharlar nafaqat mintaqada, balki respublikada ham o'ziga xos o'rin to'tadi. Aholisining soniga ko'ra viloyatda Farg'ona (268,1 ming kishi), Qo'qon (236,8 ming kishi) va Marg'ilon (218,9 ming kishi) shaharlari yuqori o'rinlarni band etadi. Respublika miqyosida bir viloyatda katta shaharlarning bunday tarkib topishi faqat Toshkent va tadqiq etilayotgan Farg'ona viloyatlari uchun xos xolos. Binobarin, viloyatning urbanistik tarkibi nisbatan yaxshi rivojlangan, lekin shahar aholisining ulushiga

ko'ra Toshkent yoki qo'shni Namangan viloyatlariga nisbatan quyi pog'onalarni egallaydi.

Viloyatda Quvasoy (aholisi 85,9 ming kishi) o'rta shaharlar turkumiga kiradi. Shuningdek, Quva (40,1 ming kishi), Rishton (32,6 ming kishi), Beshariq (22,3 ming kishi), Yaypan (22,1 ming kishi) kabi shaharlar kichik shaharlar turkumidan o'rin olgan.

Farg'ona viloyatida respublikaning ko'zga ko'ringan shahar aglomeratsiyasi "Far-Mar" aglomeratsiyasi (Farg'ona va Marg'ilon shaharlarining birinchi bosh bo'g'inlaridan) tarkib topgan. Mazkur aglomeratsiya mintaqadagi eng oldin (dastlabki) shakllangan va ayni paytda eng kattasi xisoblanadi. Bu aglomeratsiya ikki yirik shahar Farg'ona va Marg'ilon shaharlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan. Andijon va Namangan aglomeratsiyasidan asosiy farqi shundaki, bu shahar aglomeratsiyasi politsentrik ekanligi bilan ajralib turadi. Bugungi kunda aglomeratsiyada 857,0 mingdan ortiq aholi yashamoqda.

Qo'qon - Farg'ona viloyatidagi shahar. Farg'ona mintaqasi va viloyatning g'arbiy qismida, So'x daryosining quyi okimida joylashgan. Farg'ona mintaqasining muhim transport va savdo-sotiq markazi. Qo'qon shahri janubidan Katta Farg'ona kanali oqib o'tadi. Aholisi 236,8 ming kishi. Shahar aholisi 1879 yilda 18,4 ming kishi, 1926 yilda 68,4 ming kishi, 1939 yilda 85 ming kishi, 1959 yilda 105 ming kishi, 1979 yilda 158 ming kishiga teng bo'lgan².

Qo'qon shahrining yoshi taxminan 2 ming yildan ortiq, degan taxmin ilgari suriladi. Qo'qonga oid dastlabki ma'lumotlar X asr yozma manbalarida uchraydi. Toponimikasi haqida turli fikrlar mavjud. Qo'qonning orografik jihatdan "balandlikdagi shahar", etnonim jihatdan "xular shahri" (ya'ni, "xu (ku) kabilasi - elati shahri"), tabiati go'zalligidan "Xavoqand" (Xo'kand) shaklida, ya'ni "go'zal", "yoqimli" yoki "shamollar shahri" variantlari mavjud. Qadimiy Xitoy qo'lyozmalarida Qo'qon nomi "Guyshan", "Xo'xan" tarzida ifodalangan.

²Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. -Т.: ЎзМЭ, 2005. 11-жилд. -Б.205.

Shuningdek, Qo'qon shahri halq badiiy tilida "Qo'qandi latif" atamasi bilan mashxur.

1709 yilda Qo'qon xonligi tashkil topdi va shahar uning poytaxtiga aylandi. Shu davrdan boshlab shahar Qo'qon deb atala boshlandi. Shahar tezlik bilan rivojlandi. Qo'qon O'rta Osiyoning ilm-fan, madaniyat, adabiyot va san'at, savdo-sotiq markazlaridan biriga aylandi.

Qo'qon gazlamalari Sharqda va Rossiyada mashxur bo'lgan. Ayniqsa, Qo'qon qog'ozi xunarmandchilikning alohida tarmog'i sifatida shuxrat qozongan. O'rta Osiyodagi eng sifatli qog'oz Qo'qonda ishlab chiqarilgan. Shahar hayotida savdo – sotiq muhim o'rin tutgan va ichki hamda tashqi savdoga bo'lingan.

Bugungi kunda Qo'qon shahri Farg'ona viloyatining markazidan keyingi ikkinchi o'rinda turadigan sanoat, transport va madaniy markazidir.

Qo'qon shahri Farg'ona mintaqasining eng asosiy turistik markazlaridan biri hamdir. Negaki, bu shaharda bir qator tarixiy arxitektura yodgorliklari saqlanibqolgan. Qo'qonning eng yirik me'moriy yodgorliklari orasida Madrasai Mir nomi bilan mashxur bo'lgan Norbo'tabiy madrasasi, Daxmai shohon ansambli, Xudoyorxon o'rdasi, Jome masjidi, Kamol kozi madrasasi va bonhalar eng mashxurlari sanaladi³.

Marg'ilon shahri. Marg'ilon - Farg'ona viloyatining yirik shaharlaridan biri. Farg'ona mintaqasining janubiy qismida, Farg'ona shahridan 10-12 km shimolda, dengiz satxidan 475 m balandlikda joylashgan. Aholisi 218,9 ming kishi (2015). Aholisi soni tadrijiy o'sib, 1897 yilda 36 ming kishi, 1939 yilda 46 ming kishi, 1973 yilda 117 ming kishini tashqil etgan. Marg'ilondan 3-4km janubda joylashgan Yangi Marg'ilonshaharchasn Marg'ilonshahar kengashiga karaydi.

Marg'ilon X asrlarda "Marg'inon" nomi bilan shakllana boshlagan. Marg'ilon nomining kelib chiqishi haqida turli fikrlar mavjud. Ayrim toponimistlar fikricha shahar nomi "marg" - "maysazor", "o'tzor" so'zlaridan kelib chiqqan, deb taxmin qiladilar. O'z navbatida Marg'ilon "murg" va "yunon" so'zlaridan olingan degan

³Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. -Т.: УзМЭ, 2005. 11-жилд. - Б.205-212.

mahalliy to'qima rivoyatlar ham uchraydi. Tarixchi olim Ibratning "Tarixi Farg'ona" asarida yozilishicha, shaharga 883 yilda asos solingan. Arxeologik kazilmalar Marg'ilon o'rnida milodning boshlaridan aholi yashab kelayotganligini isbotlab berdi. "Boburnoma" asarida Marg'ilon Farg'onadagi 8 ta shahardan biri ekanligi, shaharning obodligi, shirin mevalari haqidaso'z yuritiladi. Uning "donai kalon" deb ataluvchi anori va "subhoniyy" o'rigi xo'b maqtaladi. Shaharning qadimiyqismida o'tkazilgan arxeologik qazilmalar natijasida Marg'ilonga bundan 2 ming yil oldin asos solinganligi anikdandi⁴.

Mashxur "Buyuk ipak yuli"da joylashgan Marg'ilon aholisi qadimdan atlas to'qish bilan shug'ullanib kelgan. Atlas uni jahonga mashxur qilgan. Marg'ilonning shoyi matolari Misr, Eron va Yunoniston, Qashg'ar savdogarlari tomonidan ko'plab xarid qilingan. Shuningdek, Marg'ilonda do'ppido'zlik, misgarlik rivojlangan.

Bugungi kunda Marg'ilonshahriFarg'ona vodiysining engil sanoat markaziga aylangan. Marg'ilonda ishlab chiqarilgan atlaslar jahon modalar olamida shuxrat qozongan. Atlas Marg'ilonning ramziga aylangan. Shoyi to'qish fabrikasining ipakchilik ilmiy tekshirish instito'ta faoliyat olib boradi.

Farg'ona viloyati urbanizatsiyasi qo'shni viloyatlardan ikki muhim xususiyati bilan farq qiladi:

1. Viloyatda aholisining soniga ko'ra viloyat markazi - Farg'ona shahri bilan Qo'qon shahri bir-biriga yaqin turadi;
2. Farg'ona aglomeratsiyasi monotsentrik emas, balki politsentrik ekanligidir.

⁴Ўзбекистон Мшший Энциклопедияси. -Т.: УзМЭ, 2005. 5-жилд. - Б.495-497.

HULOSA

Shunday qilib, Farg'ona mintaqasining iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotida va respublika mintaqaviy siyosatida shaharlar muhim o'rin to'tadi. Farg'ona mintaqadasida urbanizatsiya darajasi quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

- Farg'ona mintaqasida urbanizatsiya darajasi yuqoriligi bo'yicha Namangan viloyati oldingi o'rin turadi (63,4 foiz), Farg'ona viloyati o'rta (57,0 foiz), Andijon viloyati (52,5 foiz) esa quyi o'rinni band etadi;
- mintaqada aholisi soniga ko'ra Namangan shahri birinchi o'rinni egallab kelmoqda;
- Andijon va Namangan viloyatlarida viloyat markazlari xisoblangan shaharlarda aholi soni va salmog'iyuqoribo'lgani holda Farg'ona viloyatida bunday xolat ko'zatilmaydi. Farg'ona, Qo'qon va Marg'ilon shaharlari aholisi soniga ko'ra bir-birga yaqin turadi;
- Andijon va Namangan aglomeratsiyalari monotsentrik, Far- Mar aglomeratsiyasi politsentrik xususiyatga ega;
- Far-Mar va Andijon aglomeratsiyalari meridional, Namangan aglomeratsiyasi esa kenglik yunalishida cho'zilgan;
- mintaqaning eng yirik shaharlaridan Qo'qon, Marg'ilon, Andijon qadimgi davrlarda paydo bo'lganbo'lsa, Namangan va Farg'onashaharlari nisbatan yakyan davrda (XVIII va XIX asrlarda) vujudga kelgan;
- Asaka, Shahrixon, Chortoq, Chust, Pop, Kosonsoy, Chortoq, Quva, Ko'zasoy shaharlari aholisi 50 ming kishidan ortib ketdi;
- mintaqaning aksariyat shaharlari kichik shaharlar qatoriga kiradi. Shuning uchun ularni iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan rivojlantirish davr talabi xisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. -Т.: Ўзбекистон, 2011
2. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shahsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. Toshkent, 2017
3. Абдуллаев О. Фарғона водийси. –Наманган, 2000
4. Абдуллаев О. Мамлакатлар ва минтақалар иқтисодиёти. -Т.: Ўзбекистон, 2008
5. Абдурахмонов Қ.Х., Абдураманов Х. Демография -Т.: Ношир, 2011
6. Ата-Мирзаев О.Б. Қаюмов А.А. Ўзбекистон аҳолиси: демографик вазият ва сиёсат//иқтисод ва ҳисобот, 1996 №8
7. Аҳмедов Э.А. Ўзбекистон шаҳарлари.-Т.: Ўзбекистон, 1991
8. Аҳмедов Э.А. Ўзбекистон Республикаси.-Т.: Ўзбекистон, 1993
9. Аҳмедов Э.А. Ўзбекистон шаҳарлари устақиллик йилларида.-Т.: “Абу Али Ибн Сино номидаги тиббиёт нашр”, 2002
10. Мавлонов А. Чўл урбанизацияси. –Бухоро, 2015
11. Рўзиев А. Абирқулов А. Ўзбекистон иқтисодий географияси.-Т.: Ўзбекистон, 2001
12. Солиев А ва бошқ. Минтақавий иқтисодиёт.-Т.: Университет, 2003
13. Солиев А. Ўзбекистон географияси.-Т.: Университет, 2014
14. Тўхлиев Н. Ўзбекистон иқтисодиёти асослари.-Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006
15. Қодиров Р.Б. Аҳоли ва меҳнат ресурслари. –Андижон, 2010
16. Қодиров Р.Б. Фарғона минтақаси аҳолиси ва меҳнат ресурслари.-Т.: Наврўз, 2016

17. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. -Т.: ЎзМЭ, 2005. 11-жилд. -
Б.205
18. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. -Т.: УзМЭ, 2005. 5-жилд. -
Б.495-497.
19. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси йиллик
тўпламлари
20. Интернет маълумотлари